O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2026.31.01.Fil.45.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

SHOKIROV SHERALI IBROHIMOVICH

TURLI TIZIMLI TILLAR PERSEPSIYASIDA SIMMETRIK VA ASIMMETRIK MUNOSABAT

10.00.13 – Qiyosiy va chog ‘ishtirma tilshunoslik

FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

TOSHKENT – 2026

UO‘K: 811.11’37:811.512.133’37

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Contents of dissertation abstract of the Doctor of Sciences (DSc)

Shokirov Sherali Ibrohimovich
Turli tizimli tillar persepsiyasida simmetrik va asimmetrik munosabat……. 3

Шокиров Шерали Иброхимович
Симметричные и асимметричные отношения в перцепции в разносистемных языках…… 37

Shokirov Sherali Ibrohimovich
Symmetric and Asymmetric Relations in the Perception of Languages with Different Systems……... 75

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works……..... 80

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2026.31.01.Fil.45.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

SHOKIROV SHERALI IBROHIMOVICH

TURLI TIZIMLI TILLAR PERSEPSIYASIDA SIMMETRIK VA ASIMMETRIK MUNOSABAT

10.00.13 – Qiyosiy va chog ‘ishtirma tilshunoslik

FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.DSc/Fil1298 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.uzswlu.uz) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	**Yakubov Jamoldin Abduvaliyevich** filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Axmedov Oybek Saporbayevich** filologiya fanlari doktori (DSc), professor
	Nasrullayeva Nafisa Zafarovna filologiya fanlari doktori (DSc), professor
	Xudjayeva Ra’noxon Mutalibjonovna filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Namangan davlat chet tillar instituti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi Dsc.03/2026.31.01.Fil.45.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “20” oktabr soat 3 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, G-9A mavzesi, 21-uy. Tel.: (71) 230-12-91; faks: (71) 230-12-92; e-mail: uzdjtu@uzswlu.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlati jahon tillari universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1248 raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, G-9A mavzesi, 21-uy. Tel.: (71) 230-12-91; faks: (71) 230-12-92.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “5” oktabr kuni tarqatildi.

(2026-yil “5” oktabr dagi 20 raqamli reyestr bayonnomasi)

A.A. Nasirov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, fil.f.d., professor

X.B. Samigova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, fil.f.d., professor

G’.X. Rahimov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi v.v.b., fil.f.d., dotsent

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida bugungi kunda tilning amaliy qo‘llanishi, uning ijtimoiy mohiyati keng e’tibor qaratilmoqda. Shuningdek, turli tizimli tillarida persepsiya hodisasining simmetrik va asimmetrik xususiyatlarini, sensorik idrok ifodalarining konseptual strukturalarini hamda olamning lisoniy manzarasidagi o‘ziga xosliklarini aniqlash ehtiyoji tobora kuchayib bormoqda. Bunday tadqiqotlarda til birliklarining kognitiv vazifasi va konseptual ma’nosi ularning milliy-madaniy xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, persepsiya hodisasini tahlil qilish maxsus nazariy va amaliy yondashuvni talab etadi. Shu munosabat bilan semantik aniqlikni, kognitiv moslikni va madaniy kontekstga xos kommunikativ mezonlarni inobatga olgan holda kompleks yondashuvni ishlab chiqish dolzarb ilmiy masala sifatida shakllanmoqda.

Dunyo tilshunosligida tafakkur birligi bo‘lmish konsept tadqiqiga kognitiv-semantik, onomasiologik, antropotsentrik, milliy-madaniy va lingvistik yondashuvlarning qo‘llanilishi konsept va uning lisoniy reprezentantlari borasida keng qamrovli va asosli ma’lumotlarni ta’minlaydi. Olamning konseptual sistemasi va lisoniy sistemasi o‘rtasidagi munosabatlarni konseptlar misolida o‘rganmay turib, lingvokognitologiya yoki lingvistik konseptologiya oldida turgan qator nazariy va amaliy masalalarni hal qilib bo‘lmaydi. Shu jihatdan, simmetrik va asimmetrik munosabatda persepsiyalarning umumiy va xususiy belgi-xususiyatlarining semantik mundarijasini aniqlash, universal va milliy xususiyatlarini ochib berish, idrokni lisoniy voqelantiruvchi birliklarning maydoniy tabiatini o‘rganish, nominativ birliklarning milliy-madaniy va lingvopragmatik aspektlarga xos simmetrik va asimmetrik munosabatini ochib berish, tilning turli sathlariga mansub reprezentantlarni tarjima tilida qayta yaratish mazkur tadqiqot mavzusining naqadar muhim ekanligidan dalolat beradi.

Mamlakatimizda ma’naviyat va ma’rifatga, xususan, ta’lim va ilm-fanga bo‘lgan e’tibor davlat ahamiyatiga molik masalalar darajasiga ko‘tarilgan bugungi kunda zamonaviy ilm-fan yutuqlarini puxta egallagan, xorijlik hamkasblari bilan chet tillarda erkin muloqotga kirisha oladigan, ijodiy va tanqidiy fikrlay oladigan, jahon andozalariga munosib raqobatbardosh ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash masalasi har qachongidan ko‘ra kengroq doirada ahamiyat kasb etmoqda. Binobarin, “...davlat tilidan xorijiy tillarga va xorijiy tillardan davlat tiliga professional tarjima qilish uslubiyotlarini yaratish hamda ushbu yo‘nalishda mutaxassislarning malakasini oshirishda ko‘maklashish”[1] bugungi kunda tilshunoslik fani oldida turgan ustuvor vazifadir. Shu nuqtayi nazardan, persepsiyaning kategorial belgi-xususiyatlari va semantikasini dunyo tillari misolida aniqlash, uning lisoniy manzarasini tashkil etuvchi birliklarning simmetrik va asimmetrik munosabatlarini tasvirlash asosida tilshunoslikning lingvokognitologiya, lingvopragmatika, sotsiolingvistika kabi yangi yo‘nalishlari nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish zarurati mavjud.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori [Elektron resurs]. – URL: https://lex.uz/docs/-5426736 (Murojaat sanasi: 25.04.2024).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2026-yil 10-apreldagi PF-58-son “Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar tizimini takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2026-yil 26-maydagi PF-98-son “Yangi avlod ilmiy kadrlarini tayyorlash va ularni attestatsiya qilish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2024-yil 27-iyundagi PQ-239-son “Yoshlarni xorijiy tillarga o‘qitish tizimi samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi[2]**.** Olamning konseptual va lisoniy manzaralari o‘rtasidagi munosabatlar masalasida kognitiv va chog‘ishtirma tilshunoslikda bir qator ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy tadqiqot hamda oliy ta’lim muassasalarida, jumladan, Xalqaro kognitiv tilshunoslik assotsiatsiyasi (AQSH), Birlashgan Qirollik kognitiv tilshunoslik assotsiatsiyasi (Buyuk Britaniya), Rossiya lingvist-kognitologlari assotsiatsiyasi (Rossiya Federatsiyasi), Ispaniya kognitiv tilshunoslik assotsiatsiyasi (Ispaniya), Fransiya kognitiv tilshunoslik assotsiatsiyasi (Fransiya), Finlyandiya kognitiv tilshunoslik assotsiatsiyasi (Finlandiya), Polsha kognitiv tilshunoslik jamiyati (Polsha), Berkeleydagi Kaliforniya universiteti (AQSH), Manchester universiteti (Buyuk Britaniya), Beihang universiteti (Xitoy), Voronej davlat universiteti (Rossiya Federatsiyasi) va O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti (O‘zbekiston) da keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borilgan.

Dunyo miqiyosida kognitiv tilshunoslik va chog‘ishtirma lingvistika yo‘nalishlarida til inson tafakkuri, mental faoliyatlari mahsuli ekanligi, tilni tafakkursiz tasavvur etib bo‘lmasligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Olamni idrok etish jarayonining psixologik, madaniy, ijtimoiy, kommunikativ aspektlari mavjudligi aniqlangan (Xalqaro kognitiv tilshunoslik assotsiatsiyasi, AQSH); konsept tafakkur birligi, olam va uning bo‘laklari haqidagi bilimlar majmuasidan iboratligi asoslangan (Berkeleydagi Kaliforniya universiteti (AQSH); tilning tayanch birligi so‘z, uning turli derivatlarining semantik, psixolingvistik, kognitiv va pragmatik jihatlari tahlil etilib, metaforik birliklarning kognitiv jarayon va olam interpretatsiyasidagi o‘rni aniqlangan (Manchester universiteti, Buyuk Britaniya) kabi markazlarda bu borada ilg‘or tadqiqotlar olib borilmoqda.

[2] Sharh universitetlarning veb-saytlaridagi ma’lumotlar asosida taqdim etildi: https://www.cognitivelinguistics.org/, https://www.uk-cla.org.uk/,https://ralk.info/, https://www.ficla.fi/.

Zamonaviy tilshunoslikda idrokning simmetrik va asimmetrik hodisasi bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlar bir necha ustuvor yo‘nalishlarni qamrab olmoqda: idrok etishda simmetrik va asimmetrik hodisasini o‘rganishning kognitiv-semantik yondashuvi; madaniy tafovutlar va til tizimidagi sezgi kategoriyalarini tahlil qilish; idrokni ifodalovchi til birliklarning simmetrik funksiyasi; ularning nutqiy kontekstda yuzaga chiqish shakllari va diskursiv xoslanishi. Ayniqsa ko‘rish sezgisining til tizimida epistemik va metaforik vazifalarni bajarishdagi ustunligini, sezgi fe’llarining prototipik markaz va periferiya tuzilishini, shuningdek idrok va tafakkur o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikning til birliklarida aks etishi zarurligini ko‘rsatmoqda.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Shuni ta’kidlash joizki, persepsiyani lisoniy tahlili jahon tilshunosligida dastavval A.N. Kononov, A.M. Sherbak, A.G‘. G‘ulomov, A.P. Hojiyev kabi taniqli olimlarning[3] ilmiy asarlarida o‘z ifodasini topgan va o‘zbek tilshunosligida idrok nazariyasi doirasidagi (kognitiv tilshunoslikda kategoriyalarning mutanosibligi va xilma-xilligi to‘g‘risida) izlanishlarning rivojlanishiga turtki bo‘lgan.

Leksemalarning ayrim semantik turlari (nutq, holat, yumush, sezish, yo‘nalma, obyektli va obyektsiz harakat fe’llari), xususiyatlari va valentlik ko‘rinishlari I.K. Qo‘chqortoyev, R.Rasulov, S.X. Muhamedova, M.K. Abuzalovaning doktorlik[4] va V.A. Karimjonova, O‘.Sharipova, D.A. Abdullayeva, G.A. Narimovalarning[5] nomzodlik ishlarida tadqiq etilgan.

Idrokni ifodalovchi leksemalarning pragmalingvistik xususiyatlari, matndagi til birliklarining kognitiv mohiyati J.L.Ostin, J.R. Sirl, J.L. Mey, J.Yul, R.S. Jekendof, T.A. van Deyk, V.Evans, Y.V. Paducheva, Y.S. Kubryakova, O.V. Aleksandrova, CH.S. Pirs, J.Layonz, Sh.Safarov, A.Abduazizov, S.O‘. Boymirzayeva, A.E. Mamatov, D.Ashurova, S.Raximov, G‘.Hoshimov[6] tomonidan tadqiq qilingan.

---

[3] Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. – Москва; Ленинград: Издательство Академии наук СССР, 1960. – 446 с.; Щербак А.М. Грамматика староузбекского языка / отв. ред. А.К. Боровков; Академия наук СССР, Институт языкознания. – Москва; Ленинград: Издательство академии наук СССР, 1962. – 277 с.; Ғуломов А.Ғ. Феъл. – Тошкент: «Фан» нашриёти, 1954. – 88 б.; Ҳожиев А.П. Феъл. – Тошкент: «Фан» нашриёти, 1973. – 192 б.

[4] Кучкартаев И.К. Семантика глаголов речи в узбекском языке (компонентный и валентный анализ): Дисс. … док. филол. наук. – Ташкент: Фан, 1977. – 168 с.; Расулов Р. Глаголы состояния в узбекском языке и их валентность: Автореф. дисс. …док. филол. наук. – Ташкент: Академии наук Узбекской ССР, 1989. – 34 с.; Муҳамедова С.Х. Ўзбек тилида ҳаракат феълларининг семантик ва валентлик хусусиятлари: Филол. фан. док. ...дисс. – Тошкент: Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, 2007. – 325 б.; Абузалова М.К. Субстанциал морфология, валентлик ва синтактик қурилма: Филол. фан. док. ...дисс. автореф. – Самарқанд: Самарқанд давлат университети, 2018. – 32 б.

[5] Каримжонова В.А. Ўзбек тилида ўрин келишикли бирикмалар семантикаси: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент: Тошкент давлат университети, 1994. – 24 б.; Шарипова Ў. Ўзбек тилидаги юмуш феъларининг маъно валентликлари: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент: Фан, 1996. – 152 б.; Муҳамедова С.Х. Ўзбек тилида йўналма ҳаракат феъларининг предикативлиги ва валентлиги: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент: Мирзо Улуғбек номидаги Тошкент давлат университети, 1999. – 22 б.; Абдуллаева Д.А. Семантик-синтактик валентлик ва ўзга гапли қурилмалар: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Самарқанд: СамДУ, 2002. – 22 б.; Наримова Г.А. Ўзбек тилида феъларнинг объект аргументи: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент: Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети, 2005. – 20 б.

[6] Austin J.L. How to do things with words. – Oxford: Oxford University Press, 1962. – 174 p.; Searle J.R. Speech acts: An essay in the philosophy of language. – London; Cambridge: Cambridge University Press, 1969. – 203 p.; Mey J.L. Pragmatics: An introduction. – Oxford, UK; Cambridge, Massachusetts, USA: Blackwell, 1993. – 357 p.; Yule G. Pragmatics. – Oxford: Oxford University Press, 1996. – 138 p.; Jackendoff R. Foundations of language:

Persepsiyani ifodalovchi leksemalar strukturaviy tilshunoslik nuqtayi nazaridan T.Musayev (“O‘zbek tilida sezgi fe’llari”), T.SH. Dadayev (“Глаголы чувственного восприятия в разносистемных (узбекском и русском) языках”), Z.Siddiqov (“O‘zbek va turk tillarida ko‘ruv leksemalari semantikasi”) nomli ilmiy ishlarida tadqiqot obyekti sifatida tanlab olingan [7]. M.Y. Belau, N.A. Budansevalarning [8] kognitiv qarashlar asosida amalga oshirilgan tadqiqot ishlarida perseptiv vaziyatlarning konseptlashuvi va kategoriyalashuvi jarayonidagi o‘ziga xosligi qisman ochib berilgan.

Ingliz tilshunosligida fe’lning ayrim jihatlari va uni tasniflash masalasi X.Poutsma, O.Yespersen, A.M. Klark, Ch.K. Frays, J.E. Uorriner, M.Yos, F.R. Palmer R.A. Klouz, S.Kemmer, O.Dal, M.Svon, K.Volter, M.Aronof, J.Baybi, R.Perkins, V.Palyuka, P.Xill, R.D. Xaddlston, J.K. Pullum, M.Xaspelmat, M.Hyuings[9] tomonidan o‘rganilgan. Y.M. Gordon, I.P. Krilova, G.G. Silnitskiy,

---

Brain, meaning, grammar, evolution. – Oxford; New York: Oxford University Press, 2002. – 477 p.; Van Dijk T.A. Discourse and Power. – Basingstoke; New York: Palgrave Macmillan, 2008. – 304 p.; Evans V. How words mean: Lexical concepts, cognitive models, and meaning construction. – Oxford: Oxford University Press, 2009. – 400 p.; Падучева Е.В. Высказывание и его соотнесенность с действительностью: Референциальные аспекты семантики местоимений / Отв. ред. В.А. Успенский. – Москва: Наука, 1985. – 270 с.; Кубрякова Е.С., Александрова О.В. Виды пространств текста и дискурса Текст // Категоризация мира: пространство и время. – Москва: Издательство «Диалог-МГУ», 1997. – С. 15–26; Пирс Ч.С. Начала прагматизма / Перевод с английского, предисловие В.В. Кирющенко, М.В. Колопотина. – Санкт-Петербург: Лаборатория метафизических исследований философского факультета Санкт-Петербургского государственного университета; Алетейя, 2000. – 352 с.; Лайонз Дж. Лингвистическая семантика: Введение. – Москва: Издательский дом «ЯСК», 2003. – 400 с.; Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси», 2008. – 300 б.; Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – Toshkent: “Sharq” NMAK Bosh tahririyati, 2010. – 176 b.; Боймирзаева С.Ў. Ўзбек тилида матннинг коммуникатив-прагматик мазмунини шакллантирувчи категориялар: Филол. фан. док. …дисс. автореф. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Тил ва адабиёт институти, 2010. – 49 б.; Маматов А.Э. Тилга когнитив ёндашувнинг моҳияти нимада? // Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари (проф. А.Нурмонов таваллудининг 70 йиллигига бағишлаб ўтказилган илмий-амалий анжуман материаллари). – Андижон, 2012. – Б. 212–220; Ashurova D.U., Galieva M.R. Text linguistics. – Tashkent: Turon-Iqbol, 2016. – 324 p.

[7] Мусаев Т. Ўзбек тилида сезги феъллари: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент: Тошкент давлат университети, 1992. – 116 б.; Дадаев Т.Ш. Глаголы чувственного восприятия в разносистемных (узбекском и русском) языках: Автореф. дисс. …канд. филол. наук. – Ташкент: Узбекский государственный университет мировых языков, 1997. – 25 с.; Сиддиқов З.У. Ўзбек ва турк тилларида кўрув лексемалари семантикаси: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2000. – 27 б.

[8] Белау М.Ю. Глагольная таксономическая модель концепта «самостоятельное перемещение субъекта» в современном английском языке: Дисс. …канд. филол. наук. – Тамбов: Тамбовский государственный университет имени Г.Р. Державина, 2009. – 190 с.; Буданцева Н.А. Глагольная таксономическая модель концепта зрительное восприятие (на материале английского и французского языков): Дисс. … канд. филол. наук. – Тамбов: Тамбовский государственный университет имени Г.Р. Державина, 2014. – 234 с.

[9] Poutsma H. A grammar of late modern English. Part II: The parts of speech. – Groningen: P.Noordhoff, 1926. – 891 p.; Jespersen O. Essentials of English grammar. – London: George Allen & Unwin, 1933. – 387 p.; Clark A.M. Spoken English. – London: Oliver & Boyd, 1947. – 309 p.; Fries C.C. The structure of English: An introduction to the construction of English sentences. – New York: Harcourt, Brace, 1952. – 304 p.; Warriner J.E. English grammar and composition. – New York: Harcourt, Brace and Company, 1958. – 655 p.; Joos M. The English verb: Form and meanings. – Madison; Milwaukee: University of Wisconsin Press, 1964. – 251 p.; Palmer F.R. A linguistic study of the English verb. – London: Longmans, 1965. – 199 p.; Close R.A. A reference grammar for students of English. – London: Longman, 1975. – 342 p.; Dahl Ö. Tense and aspect systems. – Oxford: Blackwell, 1985. – 213 p.; Swan M., Walter C. The new Cambridge English course 1: Student’s book. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990. – 136 p.; Aronoff M. (Ed.). Morphology now. – Albany, New York: State University of New York Press, 1992. – 240 p.; Kemmer S. The middle voice. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 1993. – 299 p.; Bybee J., Perkins R., Pagliuca W. The evolution of grammar: Tense, aspect and modality in the languages of the world. – Chicago; London: The University of Chicago Press, 1994. – 398 p.; Hill P. An instant approach to English Grammar. – Hong Kong: Manley Study Centre, 2002. – 240 p.; Huddleston R.D., Pullum G.K. The

S.I. Jolobov, L.F. Lixomanova, K.A. Guzeyeva, S.I. Kostigina, V.G. Pavlenko, V.V. Batitskaya, I.N. Merkulova, N.N. Boldirev [10] kabi olimlar perseptiv leksemalarning muayyan bir turini tadqiq etishgan.

Persepsiya turlari, yasalishi va grammatik kategoriyalari bilan bog‘liq bir qator izlanishlar mavjud bo‘lsa-da, ingliz va o‘zbek tillari persepsiyasida simmetrik va asimmetrik munosabat namoyon bo‘ladigan pragmatik, kognitiv xususiyatlarning qiyosiy tahliliga bag‘ishlangan maxsus tadqiqot ishi shu vaqtga qadar amalga oshirilmagan.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Andijon davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Kognitiv tilshunoslikda perseptiv muammolarni o‘rganish” mavzusidagi ilmiy yo’nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o‘zbek tillari persepsiyasida simmetrik va asimmetrik munosabatni voqelantiruvchi leksik, morfologik va sintaktik birliklarning struktur-semantik, funksional-stilistik va lingvopragmatik aspektlariga asoslangan holda tillararo o‘xshashlik va farqli xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

turli tizimli tillarda idrokni ifodalovchi leksik va frazeologik birliklarning arxisemasi ot, sifat, son, olmosh, fe’l kabilar orqali ifodalanishining tayanch modellari ishlab chiqilib, chog‘ishtirilayotgan tillar materiallari asosida simmetrik va asimmetrik xususiyatlarini ochib berish;

ingliz va o‘zbek tillarida persepsiyani ifodalovchi seeing-ko‘rish, hearing - eshitish, taste - ta’m, smell - hid, touch – sezgi kabi leksemalarni tarkibidagi ma’no jihatdan zidlanuvchi leksemalarning yadro, dominant va pereferiyalarni aniqlash orqali propozitiv simmetriya va primitiv asimmetriya jihatlarini aniqlash;

idrokni ifodalovchi frazeologik birliklarning izohli lug‘atlarda funksional-

---

Cambridge grammar of the English language. – Cambridge; New York: Cambridge University Press, 2002. – 1860 p.; Haspelmath M. Understanding morphology. – London: Arnold; New York: Oxford University Press, 2002. – 290 p.; Hewings M. Advanced grammar in use: A self-study reference and practice book for advanced learners of English. – Cambridge: Cambridge University Press, 2002. – 294 p.

[10] Гордон Е.М., Крылова И.П. The English verbals. – Москва: Международные отношения, 1973. – 215 с.; Сильницкий Г.Г. Семантические и валентносные классы английских каузативных глаголов: Автореф. дисс. …док. филол. наук. – Смоленск: Смоленский государственный педагогический университет имени К.Маркса, 1974. – 44 с.; Жолобов С.И. Семантика и функционирование английских глаголов, обозначающих определенно-направленное перемещение в пространстве: Автореф. дисс. …канд. филол. наук. – Калинин: Горьковский государственный педагогический институт имени М.Горького, 1984. – 16 с.; Лихаманова Л.Ф. Семантическая филиация английских звукоизобразительных глаголов движения: Автореф. дисс. …канд. филол. наук. – Ленинград: Ленинградский ордена Ленина и ордена Трудового Красного Знамени государственный университет имени А.А. Жданова, 1986. – 18 с.; Гузеева К.А., Костыгина С.И. Инфинитив: грамматика английского языка = English grammar. The infinitive. – Санкт-Петербург: Союз, 2000. – 320 с.; Батицкая В.В. Функционально-семантический потенциал глаголов длительности в современном английском языке: Дисс. …канд. филол. наук. – Иркутск: Иркутский государственный лингвистический университет, 2001. – 174 с.; Меркулова И.Н. Категория функционально-связочных глаголов в современном английском языке: Дисс. …канд. филол. наук. – Тамбов: Тамбовский государственный университет имени Г.Р. Державина, 2004. – 164 с.; Павленко В.Г. Когнитивно-семантические и структурные свойства лексических единиц мыслительной деятельности в английском языке: Автореф. дисс. …канд. филол. наук. – Пятигорск: Пятигорский государственный лингвистический университет, 2013. – 32 с.; Болдырев Н.Н. Категориальное значение глагола: системный и функциональный аспекты: Монография. – Москва–Берлин: Direct-Media, 2016. – 229 с.

semantik invariantlarini aniqlash orqali ularning ingliz tilida funksional-semantik va o‘zbek tilida esa pragmatik semantik ma’nolarini yuzaga keltiruvchi semantogenetik omillar tahlili qilish;

ingliz va o‘zbek tillarda persepsiyani ifodalovchi leksik-frazeologik birliklarning simmetrik va asimmetrik tayanch referensiyalarini aks ettiruvchi lingvistik hodisa sifatidagi mohiyati ilmiy jihatdan asoslab berish;

idrokni ifodalovchi frazeologik birliklarning funksional-semantik kabi izomorf va konseptual-pragmatik kabi allomorf fenomenining universal mexanizmlari ilmiy-nazariy asoslash.

Tadqiqotning obyekti sifatida inglizcha va o‘zbekcha izohli lug‘atlar, ilmiy va publitsistik uslublarga tegishli matnlardagi persepsiyani ifodalovchi leksemalarning simmetrik va asimmetrik munosabati turli sathlariga mansub lisoniy vositalar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini nutqning turli uslublariga xos matnlarda persepsiyaning simmetrik va asimmetrik munosabatini ifodalovchi til birliklarini verballashtiruvchi lisoniy vositalarning kognitiv, struktur-semantik, funksional-stilistik va lingvopragmatik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda chog‘ishtirma, qiyosiy, komponent, struktur, modellashtirish, konseptual metafora tahlili, konseptual maydonni modellashtirish va statistik tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

turli tizimli tillarda idrokni ifodalovchi leksik va frazeologik birliklarni ot, sifat, son, olmosh, fe’l so‘z turkumlari doirasidagi tayanch modellarini aniqlash orqali simmetrik modifikatsiya isbotlangan;

ingliz va o‘zbek tillarida persepsiyani ifodalovchi seeing-ko‘rish, hearing - eshitish, taste - ta’m, smell - hid, touch – sezgi kabi leksemalarni yadro, dominant va pereferiyalarni aniqlash orqali propozitiv simmetriya va primitiv asimmetriya ochib berilgan;

idrokni ifodalovchi frazeologik birliklarining simmetrik va asimmetrik ma’nolarini ingliz tilida funksional-semantik va o‘zbek tilida pragmatik ustuvorligi aniqlangan;

turli tizimli tillarda idrokni ifodalovchi leksik va frazeologik birliklarning tayanch referensiyalari nutqiy formalarni tizimlash orqali isbotlangan;

idrokni ifodalovchi frazeologik birliklarning simmetrik va asimmetrik ma’nolarini qiyoslash asosida ikki tilda izomorf (funksional-semantik) va allomorf (konseptual-pragmatik) jihatlari dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ingliz va o‘zbek tillarida idrokni ifodalovchi so’zlarning tarixiy va metodologik izohli lug‘at yaratildi va bu esa persepsiyani ifodalovchi til birliklarini simmetrik va asimmetrik statusini xolis belgilashga xizmat qiladi;

idrok va ularning lisoniy manzarasini tashkillovchi birliklarga xos umumiy, xususiy, endemik va unikal jihatlarni aniqlash amaliyotini tashkillovchi samarali usullar majmui ko‘rsatib berilgan;

simmetriya, asimmetriya va dessimmetriya munosabatlari, ularga xos umumiy

va differensial belgi-xususiyatlar ochib berilgan, idrokning universal kognitiv belgilari va modeli yaratilgan;

lingvokonseptologiyaning kognitiv lingvistikaning mustaqil tarmog‘i sifatida shakllanish bosqichlari, uning oldida turgan nazariy va amaliy masalalar ko‘rsatib berilgan;

persepsiyani voqelantiruvchi tilning turli sathlariga oid nominativ birliklarning paradigmatik, sintagmatik, uslubiy jihatlari, ular o‘rtasidagi simmetrik va asimmetrik munosabatlar ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi chiqarilgan xulosalarning metodologik mukammalligi, nazariy ma’lumotlarning ilmiy va badiiy matnlardan olinganligi, qo‘yilgan masalalarning aniqligi hamda olingan natijalarning xorijiy mutaxassislar va vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ingliz va o‘zbek tillari persepsiyasida simmetrik va asimmetrik munosabatning nazariy masalalari ochib berilganligi, mazkur persepsiyalarni verballashtiruvchi leksik, morfologik va sintaktik birliklar maydonining maqomi, struktur, lingvopragmatik va funksional-semantik jihatlarini ochib berish barobarida ularning universal, milliy va etnik xususiyatlarini tashkil etuvchi omillarning dalillanganligi va tasniflanganligi tilshunoslikda simmetriya va asimmetriya muammolarini keng va chuqurroq tahlil qilishga nazariy asos bo‘lishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, dissertatsiya xulosalari va materiallaridan oliy ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan tilshunoslik fanining zamonaviy yo‘nalishlari bo‘yicha material sifatida, darslik va qo‘llanmalar yozishda, lingvokognitologiya, chog‘ishtirma madaniyatshunoslik, chog‘ishtirma lingvistika, leksikologiya, nazariy grammatika kurslarini o‘qitishda, izohli va ko‘p tilli lug‘atlar tuzish jarayonida unumli foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Turli tizimli tillar persepsiyasida simmetrik va asimmetrik munosabatni ochib berish jarayonida olingan natijalar asosida:

turli tizimli tillarda idrokni ifodalovchi leksik va frazeologik birliklarni ot, sifat, son, olmosh, fe’l so‘z turkumlari doirasidagi tayanch modellarini aniqlash orqali simmetrik modifikatsiya isbotlanganligiga oid ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan OT-FI-030-raqamli ““O‘zbek adabiyoti tarixi” ko‘p jildlik monografiyasini yaratish” nomli loyiha doirasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 21-fevraldagi 1407-310209-son ma’lumotnomasi). Natijada ushbu monografiya yangi ilmiy dalillar bilan boyitilgan va ishning ilmiy natijalari loyiha samaradorligining ortishiga xizmat qilgan;

ingliz va o‘zbek tillarida persepsiyani ifodalovchi seeing-ko‘rish, hearing - eshitish, taste - ta’m, smell - hid, touch – sezgi kabi leksemalarni yadro, dominant va pereferiyalarni aniqlash orqali propozitiv simmetriya va primitiv asimmetriya ochib berilgan ilmiy xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi madaniy-ma’rifiy muassasalar, nomoddiy milliy merosni rivojlantirish sho‘basi tomonidan

bajarilgan I-203-4 raqamli “Mamlakatimizda millatlararo munosabatlarni yanada rivojlantirish va uyg‘unlashtirish” nomli fundamental loyihani amalga oshirishda doirasida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2025-yil 4-fevral 02-13-06-865-son ma’lumotnomasi). Natijada loyiha ishlanmalari yangi ma’lumotlar bilan boyitilgan;

idrokni ifodalovchi frazeologik birliklarning simmetrik va asimmetrik ma’nolarini ingliz tilida funksional-semantik va o‘zbek tilida pragmatik ustuvorligi aniqlanganligiga oid ilmiy xulosalardan “Xorazm tarixi va madaniyati doimiy ekspozisiyasi” muzeyi faoliyatida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Xorazm Ma’mun akademiyasining 2025-yil 3-fevraldagi 28 / 1-29-son ma’lumotnomasi). Natijada foydalanilgan ilmiy-metodik tavsiyalar muzey faoliyatini yanada jonlantirishda birlamchi manbalardan biri bo‘lib xizmat qilgan;

turli tizimli tillarda idrokni ifodalovchi leksik va frazeologik birliklarning tayanch referensiyalari nutqiy formalarni tizimlash orqali isbotlanganligiga oid ilmiy xulosalardan O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanalida efirga uzatilgan “Assalom, O‘zbekiston”, “Ta’lim va taraqqiyot” radioeshittirishlar ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasining 2024-yil 17-dekabrdagi 06-28-8-24-son ma’lumotnomasi). Natijada ushbu teleko‘rsatuvlar ilmiy va amaliy jihatdan boyigan, eshittirishlarning ilmiy saviyasi ortgan hamda milliy ongida mavjud arxetip tasavvurlar umumlisoniy va milliy, ijobiy, salbiy va betaraf ekanligi, ularda xalqning intellektual va hayotiy tajribasi, donishmandligi, ma’naviy dunyosi, axloq-odob stereotiplarida leksik va frazeologik birliklarining tayanch referensiyalari nutqiy formalarni tizimlash orkalik o‘z ifodasini topishi kabi xulosalari eshittirishlarning ilmiy asoslarga ega bo‘lishini ta’minlangan;

idrokni ifodalovchi frazeologik birliklarning simmetrik va asimmetrik ma’nolarini qiyoslash asosida ikki tilda izomorf (funksional-semantik) va allomorf (konseptual-pragmatik) jihatlari dalillanganligiga oid ilmiy xulosalardan AQSHning Guilford (Guilford) kolleji tillar kafedrasi professori A.A. Machcheno o‘zining “Leksikologiya, tipologiya va tilshunoslik” ma’ruza matnlarida foydalanayotganligi to‘g‘risida ma’lumotnoma olingan (AQSH Guilford kollejining 2024-yil 30-oktabrdagi 2-son ma’lumotnomasi). Natijada idrokni ifodalovchi frazeologik birliklarining funksional-semantik kabi izomorf va konseptual-pragmatik kabi allomorf jihatlari xorijlik tinglovchilarga o‘zbek tilini o‘qitishda keng foydalanish imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 11 ta ilmiy ish, shundan 1 ta monografiya va O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik ilmiy izlanishlarining asosiy ilmiy natijalarini nashr etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, jumladan, 8 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, to‘rt bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, ishning umumiy hajmi 225 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsad va vazifalari, shuningdek, tadqiqotning obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqot ishining O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiliklar va tadqiqotning amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot ishini amaliyotga joriy qilish, chop etilgan ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi va hajmi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Tadqiqotning birinchi bobi **“Dunyo tillarida “simmetriya/asimmetriya” tushunchasi tarixi va unga doir nazariy qarashlar”** deb atalgan bo‘lib, mazkur bobning birinchi fasli *“*Dunyo tillarida simmetriya/asimmetriyaning o‘rganilish tarixi va unga oid tamoyillar universalligi” deb nomlangan. Simmetriya so‘zining ma’nosi *“mutanosiblik”* (proporsionallik – ma’nosi)ni anglatib, qadimgi yunon faylasuflari va matematiklari orasida dunyoning uyg‘unligi haqidagi ta’limot bilan bog‘liq holda paydo bo‘lgan.

Yerda hayot va moddiylik paydo bo‘lishidagi garmoniya (muvofiqlik), planetalar harakatidagi simmetriklik, ya’ni muvozanatlilik holatlari hozirgi zamonaviy fanlar yutuqlari bilan mos kelayotganligi ayni haqiqatdir.

Simmetriya va asimmetriyaning tarixiy rivojlanish bosqichlarini o‘rgana turib, bu sohaga oid birorta tadqiqotda ilk o‘rta asrlarda O‘zbekiston zaminida yashab ijod etgan buyuk mutafakkirlarimizning ishlari ilmiy jihatdan tahlil qilinmaganligiga guvoh bo‘lamiz. Holbuki, o‘sha davrlardayoq Abu Nasr Forobiy, al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino kabi buyuk olimlarimizning asarlari chet tillariga tarjima qilinganligi haqidagi dalillar mavjud. Biroq nima uchundir bu asarlardagi simmetriya, asimmetriya, garmoniya, muvofiqlikka taalluqli ishlar e’tibordan chetda qolib ketgan.

Beruniy tabiatda tartibot va notartibot (simmetriya va asimmetriya) doimo mavjudligini o‘zining ko‘plab tadqiqot ishlarida ta’kidlab o‘tadi. Uning bu qarashlari simmetriyaning mutlaq xarakterga ega emasligini va doimo asimmetriya bilan birgalikda, birlikda bo‘lishini asoslaydi. Beruniy insonlarning jismoniy jihatdan farqlanishi geografik sharoitlarga bog‘liq, deb izohlaydi. Shuningdek, u odamning strukturasini simmetriyali (*ikki ko‘z, ikki quloq, ikki o‘pka, ikki qo‘l, ikki oyoq – bularning hammasi – o‘ng-chap simmetriyasi*) va asimmetriyali (bir yurak, bir jigar), deb hisoblaydi[11]. Beruniy odam qiyofasi va organlari simmetriyasi me’yorining buzilishi (bukrilik, basharaning qiyshiqligi, cho‘loq tug‘ilish va h.k.z.)ni tabiatning yanglishishi deb hisoblagan ba’zi olimlar fikriga qarshi chiqib, bu holatni “tabiatning yanglishishi emas, balki materiyaning o‘rtacha holatidan (miqdoridan) chiqishi”, deb ataydi. Chunki, tabiat bunday og‘ishlar (buzilishlar)ni chiqarib tashlamaydi, balki bu organizmlar o‘zlarining kuchlariga bog‘liq holda mavjud bo‘ladilar[12].

---

[11] Файзуллаев О. Фалсафа ва фанлар методологияси. – Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ, 2006. – Б. 74.

[12] Шермухаммедова Н.А. Социально-философские аспекты формирования стиля научного мышления и его методологическое значение: Дисс... док. филос. наук. – Ташкент, 2001. – С. 89.

Simmetriyaning oxirgi turi tufayli barcha jismoniy qurilmalari bo‘lgan soat, agar atrofdagi jismoniy sharoitlar o‘zgarmasa, fazoning turli nuqtalarida bir xil ishlaydi. Cheklovsiz tushuniladigan simmetriya turlarining soni cheksizga o‘xshaydi.

Simmetriya va asimmetriya g‘oyalarining genezisi hamda rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

Birinchidan, antik davr fani uchun simmetriya – o‘lchamlilik, proporsionallik, aynanlik, abstrakt birlik, o‘lchov va haqiqat kriteriyasi, garmoniklik sifatida ontologik asoslanganligi uchun nolisoniy xarakterga ega bo‘lgan. Simmetriya aprior sifatida qabul qilingan, ilmiy va mantiqiy isbot talab qilinmagan. Bunday usulda simmetriyani ifodalashda, birinchidan, olamning garmonik tashkillanishida simmetriya g‘oyalari universallik sifatida, ikkinchidan, olam va moddalarning simmetriya g‘oyasi asosida taraqqiy ettirishda, uchinchidan, koinotdagi xaosning tartiblanishini boshqarishda, shuningdek, insonlar taqdirini anglashda o‘zaro muloqotni tartibga solish, to‘rtinchidan, go‘zallik va mukammallikning o‘lchovi, mezoni hamda unga erishish usuli sifatida tushunilgan.

Ikkinchidan, borliq yaralganda va u insonga tortiq etilganda, dinning kirib kelishi hamda olimlarning ijodida simmetriya g‘oyalari olamning yaratilishidagi mukammal muvofiqlik, jamiyat tashkillashishi va hayotida insonlar orasidagi o‘zaro hamohanglik, maqsadlar muvofiqligi, hamkorlik, jonli strukturalarning tashqi muhitga moslashuvchanligi, o‘nglik va chaplikning qarama-qarshi birligi sifatida tushunilsa, asimmetriya yuqoridagi jihatlarning buzilishini o‘zida ifodalagan.

Uchinchidan, simmetriya tamoyillari tuzilmaviy shakl oldi – o‘ziga element, jarayon tushunchalarini kiritish orqali, simmetrik nuqta, simmetriya tekisligi va o‘qi, aylantirish, aks ettirish, ko‘chirish, koordinatalar o‘zgarishi, yo‘nalish va boshqa kombinatsiyalar orqali aniqlash kabilar.

To‘rtinchidan, bu davrda nazariy – guruhlash metodi bilan simmetriya va uning buzilish tamoyillari bilish jarayonida fundamental metodologik tamoyil maqomini oldi va zamonaviy taraqqiyot bosqichida nafaqat fizikaning, balki barcha fanlarning, ilmiy bilimlarning nazariy paradigmalari metatamoyiliga aylandi.

Beshinchidan, tilshunoslikda simmetriya – nisbiylik va inersiya tamoyillari, saqlanish va ekvivalentlik qonunlari, shuningdek, tenglik, muvozanatlilik, juftlik, bir jinslilik, izotroplik tushunchalari orqali ifodalangan.

Keyinchalik simmetriya tamoyillari ko‘plab taniqli tilshunoslar tomonidan konseptual sistemaga keltirilib, tilda yuz berayotgan jarayonlarning chuqur birligini ochuvchi fundamental nazariyaga, ya’ni tillar nazariyasi birligiga erishishda, shuningdek, ularni o‘rganish jarayonida muammoli masalalarning yechimini topishda muhim metodologik tamoyil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Ikkinchi fasl *“Simmetriya va asimmetriya tushunchalarining konseptual tahlili”* deb nomlangan. Ma’lumki, inson olamning simmetrik va asimmetrik xususiyatlarini dastlab hissiy tarzda anglay boshlaydi. Bu jarayonda biror bir obyekt yoki predmetning qismlari orasidagi o‘zaro muvofiqlashgan, muvozanatlashgan, mutanosib, nisbiy barqaror va davriy takrorlanuvchan belgilari uni kuzatayotgan inson ruhiyatida ma’lum bir darajada xotirjamlik, sokinlik, bosiqlik, tartibot hissini

uyg‘otadi va shu sababli go‘zal voqelik sifatida qabul qilinadi. Simmetriyadan og‘ish esa, ya’ni asimmetriya (masalan, *darz ketgan ko‘zgu, g‘ijimlangan kiyim yoki qog‘oz bo‘lagi, radiodagi shovqin, vayron bo‘lgan bino, loy ko‘cha* va h.k.z.)dagi kutilmaganlik holati olamning tartibli, sokin va barqaror, mutanosib ekanligiga taalluqli bo‘lgan ishonch hissiga putur yetkazadi, shu sababli bunday noodatiy holatlar inson tomonidan aksariyat hollarda salbiy qarshi olinadi. Lekin simmetriya va go‘zallik birligini tan olish bilan birga, ba’zida simmetriyaning bir xillik, qotib qolganlik, o‘zgarmaslik, saqlanuvchanlik xususiyatlari insonni zeriktirishi, g‘ashiga tegishi va aksincha, asimmetriya, ya’ni qat’iy tartib va chegaralardan chetga chiqishlik, erkinlik, noodatiylik, betakrorlik kabi ijobiy hislarni bag‘ishlashi ham mumkin. Simmetriya va asimmetriyani bu kabi estetik va psixologik jihatlari ularning mohiyatini anglashda muhim ahamiyatga ega bo‘lsa-da, bizni ularning dialektik munosabatlari ko‘proq qiziqtiradi.

Ma’lumki, “simmetriya va asimmetriyaga taalluqli dastlabki tasavvurlar o‘z ildiziga ko‘ra mifologik va diniy qarashlarga asoslangan bo‘lib, o‘nglik va chaplikni sifatiy jihatdan farqlashga, ularni, ayniqsa, tildagi ifodalanishida aksiologik munosabatni yuzaga keltirib, ijobiy (musbat) va salbiy (manfiy) xarakteristikalarga ega bo‘lgan”[13].

Simmetriya mazmunini aniqlash masalasi shu sohaga oid ko‘plab adabiyotlarda muhokama qilingan va bir-birini to‘ldiradigan, hodisaning asl tabiatini biror darajada aks ettiradigan jihatlari yoritib o‘tilgan. Masalan, ba’zi hollarda simmetriya to‘rt xil variantda aniqlangan, ko‘proq aniqlashlarda simmetriya garmoniya va o‘lchamlilikka munosabatni ifodalagan, qolgan uchala aniqlashlar matematika, biologiya va kristallografiyaga taalluqli bo‘lib, obyektlardagi mavjud simmetriya – nuqtaga, o‘qqa, tekislikka nisbatan o‘tkazilgan tajriba sinovlarda obyekt yoki uning holati o‘zgarmay qolishi tushunilgan[14].

Simmetriya va asimmetriya tushunchalarini konseptual tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalar chiqarildi:

simmetriya – tilshunoslikda tegishli qayta ishlab chiqilgan nazariyalar yoki ularning o‘z-o‘ziga yuqori darajadagi aynanligi bo‘lib, bunda ilmiy izlanish jarayonida ishlab chiqilgan ayrim nazariyalarning elementlari yoki ularning ayrim qismlariga tegishli bo‘lgan belgilar, xossa va xususiyatlar o‘zgarmasdan saqlanadi, qonuniy takrorlanadi;

asimmetriya – tilshunoslikda olimlar tomonida yaratilgan nazariyalarning aynanligi minimal bo‘lib, bunda ularga tegishli bo‘lgan belgilar, xossa va xususiyatlarning yuqori darajada buzilgan holatini, buzilishning oxirgi natijasini ifodalaydi;

desimmetriya – tilshunoslikda simmetriyaning buzilish hodisasi bo‘lib, hali oxiriga yetmagan yoki qaror topmagan asimmetriyani ifodalaydi. Shuningdek, tilshunoslikda desimmetriya simmetriya va asimmetriya orasidagi oraliq qonunlarni

---

[13] Маковский М.М. Сравнительный словарь мифологической символики в индоевропейских языках: Образ мира и миры образов. – Москва: ФАИР-Пресс, 2001. – 291 с.

[14] Ефремова Т.Ф. Новый словарь русского языка. Толково-словообразовательный: Св. 136000 словар. ст., ок. 250000 семант. единиц: [В 2 т.]. – Москва: Русский язык, 2000. – 1210 с.

ifodalab, unda mavjud simmetriya elementlarining kamayishi, yangi simmetriya elementlarining esa paydo bo‘lish va ko‘payish jarayoni sodir bo‘ladi. Ushbu jarayonning oxirgi natijasi esa yangi simmetriyaning qaror topishiga olib keladi va qaror topgan yangi simmetriya oldingi simmetriyaga nisbatan asimmetrik bo‘ladi. Ammo tilda absolyut simmetriya ham, absolyut asimmetriya ham mavjud bo‘lmaydi, shuning uchun real lisoniy nazariyalarning haqiqiy manzarasi desimmetrik bo‘ladi.

Mazkur bobning uchinchi fasli *“Tilshunoslikda simmetrik va asimmetrik hodisasi talqini”* deb nomlangan. O‘tgan asrga kelib, til hodisalarini, ular bilan bog‘liq konsepsiyalarni yangicha nuqtayi nazarlardan qayta ko‘rib chiqish, tadqiq etish ehtiyoji tug‘ildi. Lingvistikaning turli yo‘nalishlari maqsad va vazifalari qanday ekanligidan qat’i nazar ularning o‘rganish obyekti til va nutq birliklari bo‘lib kelgan va hozir ham shunday. Til hodisalarini tadqiq etishda, nazarimizda, quyidagilarga asoslanish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

1. Har qanday lingvistik tadqiqotlar tilning yaratuvchisi bo‘lgan inson omilini markaziy o‘ringa qo‘yishi, bunda uning ruhiyati, ijtimoiy mavqeyi, ijtimoiy muhit, intellektual va madaniy salohiyati kabi qator masalalar ularning diqqat markazida bo‘ladi.

2. Olamning kongnitiv tasviri, unga xos tamoyil va qonuniyatlarning milliy tillarda namoyon bo‘lishi, bu boradagi umumiy va xususiy jihatlarni aniqlash, bunga sabab bo‘lgan omillarning ilmiy izohlarini taqdim etish.

3. Til va nutqqa xos birliklarni o‘zaro aloqadorlikda, o‘zlaridan yuqoriroq darajadagi birliklar miqyosi, tarkibi va qurshovi (mini va makro matn va undan quyi darajalarda ham) doirasida talqin etish.

4. Tilning katta-yu kichik birliklarining ma’noviy va mazmuniy xususiyatlarini aniq hayotiy va nutqiy vaziyat (konteks)lar doirasida talqin etish, bu jarayonda so‘zlovchilarning mikro va makro matn ijodkori – matn – matnni qabul qiluvchi /o‘quvchi/ tinglovchi orasida kechadigan tabiiy munosabatlar, qolaversa, ulardan ko‘zda tutiladigan maqsad-muddaolar va ularga xos yoki ularga xos bo‘lmagan aks xatti-harakatlar va munosabatlar tadqiq etilishi kabilardir.

Simmetrik tushunchalar nazariyasi rivoji haqidagi qarashlar akademik A.V. Shubnikovning ishlarida o‘z aksini topgan bo‘lib, u birxillik simmetriyasiga quyidagi umumiy ta’rifni beradi: “Keng ma’noda, asimmetrik shakl ostida biz bir-biriga nisbatan teng va noteng ravishda joylashtirilgan qismlardan tashkil topgan shaklni tushunamiz”[15]. Yoki “simmetriya – tarkibiy obyektlar tuzilishining qonuni yoki aniqrog‘i, ko‘rib chiqilayotgan tizimlarning tarkibiy yaxlitligini saqlaydigan ruxsat etilgan o‘zgarishlar guruhi sifatida belgilanadi”[16].

A.G. Likovning ta’kidlashicha, “asimmetrik obyektlar nafaqat tilda, balki san’atda ham, jamiyatda ham idiomatika, frazeologizatsiya bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan asimmetrik narsalarga qaraganda ko‘proq motivatsiyalangan, osonroq tushuntiriladi (ayniqsa, to‘qish uchun)”[17].

---

[15] Шубников А.В., Копцик В.А. Симметрия в науке и искусстве. – Москва-Ижевск: Институт компьютерных исследований, 2012. – С. 261.

[16] Шубников А.В., Копцик В.А. Симметрия в науке и искусстве. – Москва-Ижевск: Институт компьютерных исследований, 2012. – С. 263.

[17] Лыков А.Г., Лыкова Н.А. Асимметризм русского слова. – Краснодар: Книга, 2002. – 194 с.

Xulosa qilib aytganda, simmetriya tushunchasiga quyidagicha ta'rif berishimiz mumkin: simmetriya – tegishli qayta tashkillashtirishlarda obyekt yoki ular qismlarining o'z-o'ziga aynanligi bo'lib, obyekt yoki ular qismlariga tegishli bo'lgan belgilarning, xossa va xususiyatlarning o'zgarmasdan saqlanishini, qonuniy takrorlanishini ifodalovchi tushunchadir.

Tadqiqotning ikkinchi bobi **"Tilshunoslikda perseptual kategoriyalarni o'rganishning nazariy asoslari"** deb nomlangan. Ushbu bobning birinchi fasli *"Tilshunoslikda persepsiya tushunchasiga doir nazariy qarashlar"* deb atalgan. Ma'lumki, inson uni qurshab turgan olam boyliklarini beshta his etish organlari, ya'ni *ko'rish, eshitish, ta'm bilish, sezish, hid bilish* kabilar orqali biladi. His etish organlari yordami bilan biz miyaga keluvchi ma'lumotlarni qabul qilamiz, tanlaymiz va to'playmiz. Persepsiya inson hayotida o'ta muhim rol o'ynaydi, *ko'rish, eshitish, ta'm bilish, sezish, hid bilish* organlari va u bilan bog'liq bo'lgan miya qismlari – bu anchayin murakkab tashqi taassurotlarni qabul qilib oluvchi va tahlil qiluvchi tizimdir.

Bugun tilshunoslar va psixologlar fikran bir to'xtamga kelishgan, ya'ni miyaga keluvchi ma'lumotlarni qayta ishlash bilan shug'ullanuvchi organlar, idrok bilan bir xil mos tushuvchi *ko'rish, eshitish, ta'm bilish, sezish, hid bilish* kabi mexanizmlarga bevosita munosabatda bo'la oladi, shuning barobarida o'sha mexanizmlardan birining ishlashiga mos tushadi[18]. Biroq idrok tushunchasi bilan barcha perseptiv mexanizmlarini bir-biriga tenglashtirish noto'g'ri. Shu asnoda predmetning *ko'rish, eshitish, ta'm bilish, sezish, hid bilish* kabi idrok etuvchi obrazlarida. A.N. Leontyevning ta'kidlashicha, uchta asosiy komponentlar harakatga keladi – "his etishni birlashtiruvchi to'qima", "ma'no" va "shaxsiy idrok".

V.I. Koduxov olimning izidan borib, leksik-semantik guruh (LSG)ni umumiy asosiy ma'no komponentlari bilan bir so'z turkumiga bog'langan so'zni tushunib, *look-see, listen-hear, touch-feel, sniff-smell, try-taste* juftliklari mazkur juftlik belgilariga kiruvchi semantik strukturalar aniqlanadi, mazkur fe'llarning semantik jihatdan faollashtiruvchi semantik belgilar jamlamasi o'rnatiladi[19]. Olimning fikriga ko'ra, so'zlovchining ongida mazkur korrelyativ juftliklar nafaqat sinonimik, balki mustaqil til nizomiga (huquqlariga) ega juftlikning shakllanishidir.

Bobning ikkinchi fasli *"Persepsiyada metaforaning o'ziga xos nazariy asoslari"* deb nomlanadi. Zamonaviy tilshunoslik metaforaning mental faoliyati dunyoni bilish, tushunish va tushuntirish usuli sifatida ko'rib chiqadi. Inson metafora yordamida nafaqat o'z fikrlarini ifoda etadi, balki metafora bilan o'ylaydi, metafora yordamida o'zi yashayotgan dunyoni o'zgartiradi.

Ushbu hodisaga yondashuvlarning xilma-xilligi tabiiydir va ularning barchasi ma'lum bir metafora tur-xususiyatlarini ochib berishga yordam beradi. Metafora nazariyasini qurish va turli xil diskurslar doirasida o'ziga xos metafora modellarini ishlab chiqish zamonaviy fanning eng istiqbolli yo'nalishlaridan biridir. Ushbu yo'nalishga J.Lakoff, M.Jonson, Y.N. Karaulov, A.N. Baranov, D.O. Dobrovolskiy, A.P. Chudinov, M.E. Rap kabi tilshunos olimlarning ilmiy ishlari shu muammoga

---

[18] Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. – Москва: Смысл, Академия, 2005. – 352 с.

[19] Кодухов В.И. Введение в языкознание. – 2-е изд., перераб. и доп. – Москва: Просвещение, 1987. – 288 с.

bag‘ishlangandir. Metaforani o‘rganishda kognitiv yondashuv istiqbolli bo‘lib, u metafora shakllanishining chuqur jarayonlarini ochib berishga yordam beradi va ularning shakllanishi va ishlash qonuniyatlarini tushunishni kengaytiradi.

Metaforik modellashtirish funksiyalarini hisobga olgan holda, uning yordami bilan inson adekvat dunyoqarashini rivojlantirishda inson tafakkurining eng qizg‘in faoliyat nuqtalarini belgilaydi. Tilshunoslikdagi kognitiv yondashuvga ko‘ra, metaforik modellashtirish haqiqatning ba’zi bir qismini tushunish, tasniflash, ifodalash va baholash vositasi sifatida milliy, ijtimoiy va shaxsiy o‘zini anglashni aks ettirish sifatida tushuniladi[20]. Metafora vazifalarini aniqlashda V.N. Telia (1980), N.D. Arutyunova (1998), A.P. Chudinov (2001, 2002, 2004), Y.D. Apresyan (1995), M.V. Nikitin (1996, 2002), M.E. Rut (1992) kabi buyuk tilshunos olimlarning asarlari metaforik modellashtirish muammolariga bag‘ishlangan.

Xulosa qilib aytganda, metaforik modelning kognitiv funksiyasi yagona emas. Kognitiv metaforadan tashqari, u quyidagi funksiyalarga ega degan xulosaga keldik:

1. *Nominativ* – yadroni tasniflash va nomlash. Metafora bilimlarni qamrab oladi, ayniqsa, haqiqiy muallifga mos keladigan umumiy qabul qilingan nomga ega bo‘ladi. Metafora voqelikning nomini yaratish uchun ishlatiladi va shu bilan birga, ushbu obyekt, hodisa va voqelikning muhim xususiyatlarini aks ettiradi.

2. *Kommunikativ* – ma’lum kommunikativ vaziyatga moslashishi tufayli yangi nomlarning semantik tarkibini shakllantirishga ta’sir qiladi.

3. *Pragmatik* – nominativ qarorni so‘zlovchilar niyati va tilaklarini og‘zaki nutq bilan bog‘lash, nominatsiya natijasining neytral xususiyatini baholovchi va ifodali rangini aniqlash.

4. *Vizual* – bu turi yanada jonli, vizual, xayoliy, estetik jihatdan ahamiyatli bo‘lishga yordam beradi.

5. *Gipotetik* (tasavvur) – to‘liq amalga oshirilmagan narsani tasavvur qilish, mohiyat haqida metafora bilan qandaydir taxmin yaratish imkonini beradi.

6. *Evfemistik* – muallif u yoki bu sabablarga ko‘ra to‘g‘ridan to‘g‘ri nomlar yordamida belgilashni to‘g‘ri deb hisoblamaydigan ma’lumotlarni yetkazishga yordam beradi.

7. *Ommalashtirish* – murakkab g‘oyani qabul qiluvchi uchun sodda shaklda yetkazish imkonini beradi.

Ushbu funksiyalar har xil turdagi metaforalarga xosdir, ammo sezgini ifodalovchi metafora, o‘ziga xos xususiyatlarini (sinesteziya va sinestemiya) hisobga olgan holda, ularga qo‘shimcha ravishda o‘ziga xos reduksionistik va sintetik funksiyalarga ham ega.

Bobning uchinchi fasli *“Idrok etishda kognitiv yondashuvning nazariy xususiyatlari”* deb atalgan. Kognitiv vazifadagi konseptual-divergent fe’llar toifasiga kiruvchi *to see* fe’lining ko‘pma’nolilik masalasiga F.M. Berezin o‘zining ilmiy ishlarida to‘xtab o‘tgan. Uning fikricha, mazkur toifa fe’llarining semantik qurilishi o‘zi bilan ikkita, bazaviy (birinchi) va ikkinchi darajalarni tashkil etuvchi daraja shaklini ifoda etadi. Bazaviy daraja fe’llarning konseptual-divergent

[20] Кодухов В.И. Введение в языкознание. – 2-е изд., перераб. и доп. – Москва: Просвещение, 1987. – С. 47.

ma’nolari orqali ifodalansa, ikkinchi daraja esa uning metaforalashtirish va metonimiyalashtirish kognitiv mexanizmi natijasi sifatida ifodalanadi[21].

Shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, aqliy va perseptiv jarayonlarning o‘zaro kognitiv asoslari haqidagi masalaga xorij tilshunoslari, avvalo, J.Lakoff va M.Jonsonlar qo‘l urishgan. Shu bilan birgalikda, *understanding is seeing* (tushunish – bu ko‘rishdir), *seeing is touching* (ko‘rish – bu teginishdir), *eyes are limbs* (ko‘zlar – oyoq-qo‘ldadir), *the eyes are containers for the emotions* (ko‘zlar – bu davom etuvchi hissiyotdir)[22].

Yuqoridagi olimlarning fikrlariga qo‘shilgan holda, professor F.F. Fortunatov ham *understanding as (seeing) the light* (tushunish – yorug‘likdir (yorug‘likni ko‘rish bilan barobar)), *knowing as having seen* (bilish – ko‘rish bilan barobardir), *knowing as feeling or touching* (bilish – his etish yoki teginish bilan barobar) konseptuallashtirish turlarini ajratdi[23].

Muhimi shuki, persepsiya konsepti fe’llarining verballashuvini ifodalovchi ko‘rish persepsiyasi fe’llari LSG ko‘rish fe’li identifikatori sifatida *to see, to look, to gaze* va *to scan* kabi fe’llar taqdim etilgan. I.Y. Kolesovning tasdiqlashicha, konsept konfiguratsiyasining muayyan modelini ifodalovchi konseptual turlar sifatida paydo bo‘ladi[24].

O‘zbek tilshunos olimlari N.M. Mahmudov, D.U. Ashurova, Sh.Safarov, G‘.M. Xoshimov, O‘.Q. Yusupov, A.E. Mamatov, D.Xudoyberganova, A.Nurmonov, B.R. Mengliyev, Z.T. Xolmonova[25] va boshqalarning konsept terminiga bergan ta’riflari e’tiborga loyiq. Masalan, “Kognitiv tilshunoslik” risolasi muallifi professor Sh.Safarov “konsept ham tafakkur birligi va uning asosida tushuncha, obraz va lisoniy ma’no umumlashmasi yotadi”, deb ta’riflasa, professor O‘.Q. Yusupov “konsept – bu tashqi va ichki dunyodagi biror narsa yoki hodisa haqidagi ongimizdagi bilimlar majmuasi, u haqidagi obrazlar va unga bo‘lgan ijobiy, salbiy, neytral munosabatlar, ya’ni baholashlardir” degan ta’rifni beradi.

---

[21] Березин Ф.М. История лингвистических учений. – 2-ое изд. – Москва: Высшая школа. – 304 с.

[22] Лакофф Дж. Метафоры, которыми мы живем / М.Джонсон; пер. с англ. А.Н. Баранова и А.В. Морозовой; под ред. и с предисл. А.Н. Баранова. – Москва: УРСС, 2004. – 252, [2] с.

[23] Фортунатов Ф.Ф. Сравнительное языкознание. – Изд. стереотипное. – Москва: Красанд, 2019. – 178 с.

[24] Колесов И.Ю. Актуализация зрительного восприятия: когнитивный аспект (на материале английского и русского языков): Дисс. ... док. филол. наук. – Барнаул: Алтайская государственная педагогическая академия, 2009. – 467 с.

[25] Маҳмудов Н.М. Ўзбек тилидаги содда гапларда семантик-синтактик ассиметрия. –Тошкент: «Ўқитувчи» нашриёти, 1984. – 147 б.; Ашурова Д.У. Переспективы научных исследований в свете новых направлений лингвистики // Филология масалалари. – 2004. – № 4. – С. 37–40; Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – 92 б.; Хошимов Г.М. К теории концептов и их таксономики в когнитивной лингвистике // «Систем--структур тилшунослик муаммолари» ф.ф.д., проф. Н.К. Турниёзов таваллудининг 70 йиллигига бағишланган Республика илмий-назарий конференцияси материаллари. – Самарқанд: СамДУ, 2010. – Б. 69-70; Юсупов Ў.Қ. Маъно, тушунча концепт ва лингвокультурема атамалари хусусида // «Стилистика тилшуносликнинг замонавий йўналишларида» илмий-амалий конференция материаллари. – Тошкент, 2011. – Б. 4–9; Маматов А.Э. Тилга когнитив ёндашувнинг моҳияти нимада? // Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари (проф. А.Нурмонов таваллудининг 70 йиллигига бағишлаб ўтказилган илмий-амалий анжуман материаллари). – Андижон: АДУ, 2012. – Б. 212–220; Худайберганова Д.С. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик талқини: Филол. фан. док. …дисс. автореф. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Тил ва адабиёт институти, 2015. – 102 б.

Xulosa qilib aytganda, kognitiv yondashuvning asosiy bayonotlaridan biri shundaki, til quyidagi umumiy o‘lchamdagi fikrlarga tayangan holda ifodalanadi degan fikrga keldik:

–til kategoriyalari bizning konseptual tizimimizdagi boshqa kategoriyalar bilan bir xil bo‘lishi kerak, ya’ni ular prototipik va asosiy darajadagi effektlarni namoyish qilishi kerak;

–til ma’lumotlari, umuman, kognitiv kategoriyalarni umumiy tushunishga yordam beradi.

Til hodisalari juda xilma-xil va ko‘p bo‘lganligi sababli, bundan tashqari, turli paradigmalarda tasvirlangan va o‘rganilgan kategoriyalarning tabiati, mazmuni va tuzilishi haqidagi ma’lumotlarning asosiy manbalaridan biri bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqotning uchinchi bobi **“Ingliz va o‘zbek tillarida persepsiyani ifodalovchi leksemalarning simmetrik va asimmetrik munosabati”** deb nomlangan. Insonga uni qamrab olgan borliq to‘g‘risidagi ma’lumotlar ingliz tilida: *hearing, touch, smell, taste;* o‘zbek tilida: *seeing – ko‘rish, hearing – eshitish, taste – ta’m, smell – hid, touch – sezgi layoqatini* bilish kabi xususiyatlar bilan birgalikda bevosita idrok etish (sezgi) shaklida ham namoyon bo‘ladi. Mazkur ma’lumotlar (ko‘rish, eshitish, sezish, his qilish, hid bilish sezgilari)ni yetkazib beruvchi vositalar borliqni idrok etishning umumiy tizimini tashkil qiladi. Idrok qilishning har bir usuli tananing biror-bir muayyan organi yordamida yuzaga chiqarilib, bunda ko‘rish sezgisi alohida ahamiyat kasb etib, mazkur tuzilmaning boshqa sensor tizimlarga nisbatan bajaradigan amallari keng qamrovli hamda hayot uchun muhim hisoblanadi. Inson uning yordamida borliqni tafakkur qiladi, hodisa va jarayonlar his qilinadi, qabul qilinadi, boshqalaridan farqlanadi, o‘zlashtiriladi hamda ularning obrazlari shakllantiriladi. Ushbu bob besh fasldan iborat.

Birinchi fasl *“Ingliz va o‘zbek tillarida ko‘rish sezgisini ifodalovchi leksemalarning simmetrik va asimmetrik munosabati”* deb nomlanib, unda qator olimlarning ko‘rish sezgisi va idrok qilish jarayonining yuzaga kelishi to‘g‘risidagi fikrlari tahlil qilingan. Shuningdek, keltirilgan yo‘nalishlarni tavsiflab o‘tsak:

1. *Ko‘rish sezgisining psixo-fiziologik aspekti.* Ko‘rib idrok qilish jarayonida his qilish organlari kompleks ravishda ishlaydi, ya’ni qabul qilinayotgan ma’lumotlar qiyoslanadi, baholanadi va shu tariqa ongimizda o‘z ifodasini topadi. Ko‘rib idrok qilishning muhim xususiyatlari – bu predmetlar olami bilan bog‘langanligi, bir butunligi, shakllangani, konstanti (doimiy miqdori) va anglashilganlik darajasida namoyon bo‘ladi.

2. *Ko‘rish sezgisining falsafiy aspekti.* Idrok qilishning mohiyati, mazmuni, asosiy xislat-xususiyati, amal qilishi va inson faoliyatidagi o‘rni to‘g‘risidagi masalalar antik davrlarda ham muhokamalarga sabab bo‘lib kelgan. Faylasuf va psixologlar insonning perseptiv (idrok qilish) tizimiga oid o‘z farazlarini yoritib, bu jarayonda ko‘rishning mavhumligini birinchi darajadagi ahamiyatga molik deb hisoblab, uning inson kognitiv sistemasiga bog‘liqligini turlicha talqin qilganlar.

3. *Ko‘rish sezgisining ijtimoiy-madaniy aspekti.* Ko‘rish sezgisi (persepsiyasi) o‘zining keng qamrovli xarakterdaligi sababli madaniy aspektda ham o‘rganiladi.

Ko‘rish – bu nafaqat neyrofiziologik vazifani bajaruvchi, balki insonning ko‘rish qobiliyati natijasida erishgan yutuqlari, tajribalari asosida madaniyatga erishish vositasi hisoblanadi.

4. *Ko‘rish sezgisining lingvistik aspekti.* Idrok qilish qobiliyati kognitiv mexanizm sifatida til orqali ifodalanishining lingvistik mexanizmlaridan biri bo‘lib, tilning belgilar sistemasi va so‘zning semantik ma’nosi – nolisoniy mavjudlikni obyektivlashtirib (ifodalab), inson tomonidan mazkur voqelikning idrok qilinishini belgilab beradi. Bu jarayonda so‘zning ma’no-mazmuni kognitiv tizimdagi ko‘rishga doir obrazlarning shaxsiy, individual tasvirlarini emas, balki ularning ijtimoiy belgilarini namoyon qiladi.

Barcha tillar simmetrik nuqtayi nazaridan “kun” – bu insonlar ko‘rishi mumkin bo‘lgan payt; “tun” esa asimmetrik hisoblanib, insonlar ko‘ra olmaydigan, ko‘rsa-da, uning butunligini faraz qiladigan vaqtdir. “Yorqin” va “yaltiroq” bo‘lib ko‘ringan predmetlar “kun”ning yorug‘ligiga nisbatan, insonning ko‘rish qobilyatiga nisbatan asimmetrik munosabatda ekanligining namunasi hisoblanadi. Qolaversa, “qorong‘u” va “zafaron” (yorug‘ emas) predmetlari ham bunga misol bo‘la oladi.

Ko‘rish sezgisini ifodalovchi leksemalarning taksonomik modelining tayanch darajasi talabiga asosan perseptiv voqelikning konseptualizatsiyasi uchun ko‘rish sezgisi orqali ma’lumotlarni qayta ishlash minimal kognitiv xatti-harakatlar evaziga amalga oshiriladi. Bu daraja konseptualizatsiya rakursini aniqlashtirilish, persepsiyani hisobga olishda o‘ziga xoslikni belgilab berishni talab qilmaydi. Ushbu darajadagi simmetrik va asimmetrik tavsiflar iyerarxiyasida muhim hisoblangan, zaruriy konseptual tavsiflar joylashgan bo‘lib, ular ko‘rish sezgisining prototipik munosabatlari haqidagi bilimlarni yetkazib beradi. Bular qatoriga “subyekt”, “obyekt” va “yo‘naltirilganlik” tavsiflari kiradi. Ushbu konseptual tavsiflar reprezentantlari sifatida ingliz tilida *to see* va *to look* fe’llari, o‘zbek tilida esa *“ko‘rmoq”* va *“qaramoq”* fe’llari chiqadi. Mazkur leksemalarning tayanch darajada turishiga bir qator faktorlar sabab bo‘ladi, ya’ni tayanch darajadagi leksemalar belgilangan daraja talablariga javob berishi lozim.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda biz “ko‘rish” sezgisini ifodalovchi leksemalarni uch turga, ya’ni simmetrik, asimmetrik va desimmetrik guruhlarga bo‘lib chiqdik (1-jadvalga qarang):

Ko‘rish sezgisini ifodalovchi fe’llarning ma’no ko‘lami keng bo‘lib, ingliz va o‘zbek tillaridagi “to see – ko‘rmoq” fe’li bir qator ma’nolarga ega va ikki til uchun unversal hisoblanadi. “To see – ko‘rmoq” fe’li faqat ko‘rish amalini ifodalab qolmay, boshqa bir qator asimmetrik munosabatdagi ma’nolarga ham egadir.

Masalan:

1. I see a book – ko‘rib idrok qilish;

2. Let me see – ko‘rib anglash;

3. I see that George have guessed about it – ko‘rib bilim olish;

4. I see you don’t agree with hi – ko‘rib mulohaza qilish;

1-jadval.

Ko‘rish persepsiyasi tasnifi

KO‘RISH PERSEPSIYASI

SIMMETRIK LEKSEMALAR		ASIMMETRIK LEKSEMALAR		DESIMMETRIK LEKSEMALAR	
vision	*qarash*	*to see*	*ko‘rmoq*	*to blind*	*ko‘rmaslik*
sight	*ko‘rish*	*to watch*	*tikilmoq*	*eyeless*	*ko‘zsiz*
view	*nazar*	*to examine*	*kuzatmoq*	*blindness*	*ko‘rlik*
secrurity	*nigoh*	*to flicker*	*alanglamoq*		
to eye	*qaramoq*	*to follow*	*baqraymoq*		
to see	*ko‘rmoq*	*to gape*	*xo‘mraymoq*		
to look	*boqmoq*	*to gawk*	*o‘qraymoq*		
to watch	*termilmoq*	*to gawp*	*bezraymoq*		
to stare	*mo‘ltiramoq*	*to glance*	*chaqchaymoq*		
to gaze		*to glare*	*suqlanmoq*		
		to glimpse	*angraymoq*		
		to glower	*boqmoq*		
		to goggle	*baqraymoq*		
		to inspect	*qaramoq*		
		to look on	*ko‘rmoq*		
		to look out	*tikilmoq*		
		to look up	*termulmoq*		
		to notice	*ko‘zdan*		
		to observe	*kechirmoq*		
		to peek	*nazar solmoq*		
		to peep	*kuzatmoq*		
		to peer	*o‘qraymoq*		
		to scan	*bo‘zraymoq*		
		to scowl	*bezraymoq*		
		to scrutinize	*xo‘mraymoq*		
		to sight	*chashm*		
		to scan			
		to survey			
		to witness			

Ko‘rish sezgisini ifodalovchi fe’llarning ma’no ko‘lami keng bo‘lib, ingliz va o‘zbek tillaridagi *“to see – ko‘rmoq”* fe’li bir qator ma’nolarga ega va ikki til uchun universal hisoblanadi. *“To see – ko‘rmoq”* fe’li faqat ko‘rish amalini ifodalab qolmay, boshqa bir qator asimmetrik munosabatdagi ma’nolarga ham egadir.

O‘zbek tilida ham *ko‘rmoq* – ko‘rish qobiliyatiga ega bo‘lmoq, kishi va narsalarning, borliqning qanday ko‘rinishini farqlay bilmoq[26], *qaramoq* – ko‘rish

[26] Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси: 5 жилдли / А.Мадвалиев таҳр. ост. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2020. – Б. 469.

uchun ko‘zni biror tomonga, narsa yoki kimsaga yo‘naltirmoq[27] degan ma’nolarni ifodalab, asimmetrik munosabatda bo‘luvchi quyidagi leksemalari mavjud:

Qaramoq, boqmoq, termulmoq, olaymoq, go‘laymoq leksemalarida ko‘rish amali ma’nosi torayadi va gapdagi mazmuni simmetriyadan asimmetriya munosabatiga o‘tadi. Ko‘rish sezgisini ifodalovchi asimmetrik ma’noni bildiruvchi so‘zlar uslubiy qo‘llanish jihatidan o‘zaro farqlanadi. Masalan, *qaramoq* va *boqmoq* fe’llari bir grammatik shakldagi so‘z bilan bog‘lanib kelsa ham, qo‘llanilishiga ko‘ra farqlanadi. *Qaramoq* fe’li umumiylik xususiyatiga ega bo‘lib, adabiy tilda ham, muloqotda ham qo‘llanilishi mumkin. *Boqmoq* fe’li esa ko‘proq badiiy tilda va asarlarda emotsional ma’no qo‘shish, o‘ziga xos asimmetrik tushunchani ifodalash uchun xizmat qiladi. Fikrimizni misollar asosida tahlil qilsak: *“Mo‘min suvchi g‘o‘zaga suv tarab yurar, qish paytida shiyponga ham qarab turardi”*[28]. *“Ko‘p og‘ir, indamay ketib borayotgan Mo‘min turnalarga boqib, o‘y surardi”*[29]. Berilgan misollardagi *qarab turar, boqib* leksemalarida ushbu holat mavjud. Yoki *“Fahriddin yaqinroq borib, guvohning ko‘ziga tik boqdi”*[30]. Bu misolda boqmoq fe’li muayyan amal bajaruvchining ruhiy holatini ifodalab kelmoqda. Aniqrog‘i, asimmetrik holat bilan bog‘liq ko‘rish sezgisini ifodalaydi. *Qaramoq* va *boqmoq* fe’llari uslubiy jihatdan farqlanadi.

Ko‘rish sezgisini ifodalovchi leksemalarning o‘ziga xos ma’no xususiyatlarini ifodalovchi *qaramoq, boqmoq, kuzatmoq, alanglamoq, tikilmoq, termilmoq, baqraymoq* kabi so‘zlarni bir qatorga kiruvchi sinonimlar sifatida qaray olmaymiz. Chunki, ushbu leksemalar simmetrik jihatdan o‘xshashligiga qaramasdan, ma’no jihatdan farqlanadi. Fikrimizning tasdig‘i sifatida ko‘rish sezgisini ifodalovchi fe’llarning ba’zi turlarini bildiruvchi so‘zlarning asimmetrik xususiyatlarini keltirib o‘tamiz: 1. *Diqqatga molik biror narsa topolmagach, yon-atrofga alanglab, oyoq ostini zimdan ko‘zdan kechira boshladi*[31]. 2. *Qarab turib ham kulging keladi, ham yig‘laging*[32].

Berilgan misollarda *kuzatmoq, qaramoq* fe’llari qo‘llanilgan bo‘lib, ular ko‘rish vazifasini ifoda qilgani bilan ma’lum darajada bir-biridan semantik jihatdan farqlanadi. *Kuzatmoq* fe’lida holatni payqash mumkin. Bu fe’l ko‘rish sezgisini ifodalovchi fe’llarning ayrim turlaridan birini bildirishi bilan birga amalning bajarilishi haqida ma’lumot beribgina qolmay, unga qo‘shimcha ma’nodorlikni simmetriyadan asimmetrik munosabatga o‘tishini ham anglatyapti. Shu o‘rinda asimmetrik deganda, *kuzatmoq* fe’li orqali ko‘rish amalining bajarilishi haqidagi ma’lumotdan tashqari, uning bajarilishidagi agentning holatini ham ifodalanishini nazarda tutdik. *Qaramoq* fe’li esa mazkur ish-harakatning bajarilishi haqida shunchaki ma’lumot beradi, ma’nodorlik sezilmaydi.

---

[27] Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси: 5 жилдли / А.Мадвалиев таҳр. ост. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2020. – Б. 255.

[28] Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси: 5 жилдли / А.Мадвалиев таҳр. ост. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2020. – Б. 255.

[29] Юсуф М. Сайланма. – Тошкент: Шарқ, 2019. – 288 б.

[30] Синдаров К. Кечиккан қасос. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2022. – Б. 352.

[31] Синдаров К. Кечиккан қасос. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2022. – Б. 352.

[32] Хошимов Ў. Тушда кечган умрлар. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2015. – 272 б.

Ko‘rish sezgisini ifodalovchi leksemalarning simmetrik va asimmetrik munosabati insonning ichki leksikonida mavjud bo‘lgan verbal va noverbal tushunchalardan iborat muayyan mental mazmunni ifodalaydi. Ko‘rish sezgisining konseptlashuvi voqelikning ongdagi anglashinuvi va inson ongida biror-bir konseptning hosil qilinishiga, ushbu simmetrik va asimmetrik munosabatlarning tavsiflari yig‘indisining paydo bo‘lishiga sababchi bo‘lsa, u holda kategoriyalashuv natijasida ushbu konseptual tavsiflar tartibga solinadi.

Bobning ikkinchi fasli *“Ingliz va o‘zbek tillarida ta’m va hid bilish qobiliyatini ifodalovchi leksemalarning simmetrik va asimmetrik munosabati”*ga bag‘ishlangan bo‘lib, unda ingliz va o‘zbek tillarida ta’m bilish xususiyatini ifodalovchi leksemalarning simmetrik va asimmetrik munosabatini ta’riflashga harakat qilganmiz. Ingliz va o‘zbek tillarida ta’m bilish xususiyatini ifodalovchi leksemalar bir qator zamonaviy tushunchalarning asosiga aylanib bormoqda: ta’m, birinchidan, tanlovning asosi, ikkinchidan, ko‘rsatilgan qiziqish, uchinchidan, rivojlanish darajasi, to‘rtinchidan, go‘zallik, nafislik hissi, estetik qadrlash kabi qobiliyatlar majmui. Umuman olganda, shaxsning rivojlanish darajasi deb atasak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Ta’m bilish xususiyatini ifodalovchi leksemalar biz tomonimizdan ko‘p darajali (til vakillari) sifatida tasniflanadi, ularning tavsifi uchun simmetrik va asimmetrik yondashuv eng maqbul yo‘ldir. Shuningdek, ta’m bilish xususiyatini ifodalovchi leksemalarning tuzilishida quyidagilar mavjud: 1) ta’m standarti yoki kognitiv mos yozuvlar nuqtasi haqida ma’lumotni o‘z ichiga olgan simmetrik daraja va ushbu konseptning eng umumiy g‘oyasi; 2) qayta o‘ylangan xususiyat haqida ma’lumotni o‘z ichiga olgan sezilmaydigan asimmetrik daraja, ya’ni metaforik va ramziy ma’nolar mavjudligidir.

Ta’m bilish xususiyatiga ega bo‘lgan leksemalar simmetrik va asimmetrik munosabatga kirishganda ot (substantiv), sifat, fe’llar orqali ifodalansa, ularning yadroviy ma’noga nisbatan ancha susaygan, undan uzoqlashgan, *nimtatir, nordon, achchiq* kabi periferik ma’nosi orqali bu leksemaning pragmatik xususiyatlari namoyon bo‘ladi (1-rasmga qarang):



1-rasm. Ta’m-maza leksemalarining simmetrik va assimetrik maydonda munosabatga kirishuvi

Ta’m bilish xususiyatiga ega bo‘lgan leksemaning simmetrik va asimmetrik munosabati inson iste’mol qilishiga qarab turib uning tabiatini, hayot tarzi va umumiy psixik holatini tushunishda ham namoyon bo‘ladi. Bunda inson boshidan kechirayotgan iliqlik, hurmat, g‘azab, yovuzlik, baxt, saodat, umid, ishonch, bezovtalik, qo‘rquv, xafalik, qiziquvchanlik, samimiylik, oliyjanoblik kabi ko‘plab simmetrik tuyg‘u elementlarini ifodalashi mumkin.

Tilda ta’m bilish xususiyatini ifodalovchi leksemalarning simmetrik va asimmetrik munosabati asosan atributning ma’nosi, ya’ni leksik birliklar bilan ifodalanadi. Barcha xarakterli ma’nolar insonga yo‘naltirilganligi sababli, ular inson va dunyoning o‘zaro aloqalariga qarab shakllanadi. Xususiyat simmetriyasi nafaqat dunyoni bilishning ma’lum bir usuli bilan bog‘liq, balki bunga qarab ba’zi o‘ziga xos xususiyatlarga ham egadir. Bu haqiqat obyektlarni hissiy idrok etishga mos keladigan belgilarga murojaat qilganda seziladi. Ta’m bilish xususiyatini ifodalovchi leksemalar, birinchi navbatda, obyektlarning simmetrik va asimmetrik xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, yaratilgan predikatlar – ingliz tilida bu odatda sifatlarning semantik jihatdan sodda shakli bilan ifodalanadi: *sweet – (shirin), bitter – (achchiq), sour – (nordon), salty – (sho‘r)* va h.k.z. Bu so‘zlarning ma’nosi faqat bitta atributning ko‘rsatkichini o‘z ichiga oladi.

Ma’lumki, ta’m bilish xususiyatini simmetrik va asimmetrik munosabatini tasvirlash uchun unga aloqador sohasiga taalluqli bo‘lmagan bir qator tushunchalarga murojaat qilish mumkin. Biroq u inson faoliyatining turli sohalariga oid hodisalarda namoyon bo‘ladi. Masalan, ruhiy zavq, lazzat – ingliz tilida: *“While eating, the meat of the flounder gave off a piquant taste with the sweet note of the putrid- iodinecontaining decay of an alga. No, something is missing. Some piquant spark, the last chord, this is not harmony” – “Ovqatlanayotganda kambala go‘shti suv o‘tlarining chirigan – yodli parchalanishining shirin notasi bilan o‘tkir ta’m berdi. Yo‘q, nimadir yetishmayapti. Ba’zi o‘tkir uchqun, oxirgi akkord, bu uyg‘unlik emas”.*

Yuqoridagi gapda foydalanilgan “piquant taste – achchiq ta’m” so‘z birikmasi aslida asimmetrik ma’noda ishlatilsa-da, gapdagi taomlangan shaxs go‘shtning mazasidan lazzatlanganligini, ushbu zavqdan ruhiy ozuqa olganligini ta’riflab beryapti. Bunday ruhiy lazzatlanish o‘zbek tilidagi misollarda ham uchrab turadi: *“…Chol mayingina kulib qo‘ydi va xizmat qilayotganlarga bitta achchiq choy olib kelishini buyurdi va biroz ichib dam olishini aytdi”.* Mazkur gapda ham “achchiq choy” so‘z birikmasi bir qarashda asimmetriya ko‘lamidan foydalanilsa-da, undan simmetrik ma’noda foydalanilib, inson ruhiyatini yaxshilashi va undan lazzatlanish idrok munosabatini ifodalayapti.

Ta’m bilish xususiyatini ifodalovchi leksemalar nutqda turli stilistik vosita sifatida ham simmetrik va asimmetrik munosabatda qo‘llanishi mumkin. Bu leksemalardan metaforik va metonimik modellar yasash orqali nutqda qo‘llash mumkin. Masalan, *“Ta’m – maza – lazzat (rohat, ruhiy zavq, rizq)”* metaforik modeli inson tasavvurini chuqurlik va kenglik o‘lchamlariga ega bo‘lgan makon (obyekt) sifatida yuzaga chiqaradi: *“Munchalik mazani topa olmaydi, Uyquda tamshagan chaqaloqlar ham”* (G‘ulom G‘.).

O‘zbek tilida bundan tashqari *“ta’m – maza – ma’no, mantiq”* metaforik modeli ham keng qo‘llaniladi. *Mantiqiy mazasi* – deganda inson ijobiy hislarining simmetrik ma’nolarini ifodalasa, *mazasini qochirmoq* bu – yovuzlik singari asimmetrik tuyg‘ularni ifodalaydi. Misol uchun: *“Isamat otaning bu gapi ham, choyxo‘rlarning ma’qullovchi kulgulari ham mulla Berdiyorning mazasini qochirdi”* (Oybek).

Metaforik modellar bilan bir qatorda ta’m hissini asimmetrik xususiyatida – odam tipidagi metonimik modellar ham qo‘llaniladi. Masalan: *“Shu kunlarda mening mazam qochib qolganini qarang-a!”* (Oybek).

Ushbu misollarga tayangan holda aytish mumkinki, ingliz tilida ta’m bilish xususiyatiga ega bo‘lgan so‘zlar insonning ichki va tashqi dunyosi o‘rtasidagi o‘ziga xos simmetrik va asimmetrik munosabat rolini bajaryapti.

Shuningdek, “hid bilish qobiliyatini ifodalovchi leksemalarning simmetrik va asimmetrik munosabati” haqida gap ketganda, hid bilish qobiliyatini ifodalovchi leksemalarning eng muhim vazifasi – hidni idrok etish va unga baho berish vazifasini bajarishi haqida to‘xtaldik. U insonga atrof-muhitni his qilish, tashqi olamni tuyish va unda o‘z o‘rnini topib yurish imkonini beradi.

Ingliz va o‘zbek tillaridagi hid bilish qobiliyatini ifodalovchi leksemalarning simmetrik va asimmetrik munosabatini o‘rganish maqsadida ularni quyidagi asosiy guruhlarga bo‘lib chiqdik:

1. Eng kuchli hid: stink *(bisotda saqlanadigan)*; 2. Kuchli hid: funk *(ta’sir darajasi yuqori),* reek *(tez ta’sir qiladigan),* stench *(zuhur etish),* whiff *(shiddatli);* 3. Kuchsiz hid: be malodorous *(zaif),* smell to high heaven *(zuhur etish darajasi past).*

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda ingliz va o‘zbek tillarida hid bilish qobiliyatini ifodalovchi leksemalarning quyidagi xususiyatlarini ham ta’kidlash lozimdek ko‘rinadi:

A. Xushbo‘y hid hissi – ingliz tilida: *aura, balm, fragrance, incense, odor, perfume, redolence, savor, scent, smell, spice*; o‘zbek tilida: *xushbo‘y hid, tutatqi, hid, atir, lazzatlanish, shirin hid, mushk hid, ziravor.*

B. Toza havo (yengil shirin shaboda) – ingliz tilida: *aroma, faint breeze, flatus, flutter, gust, odor, puff, sigh, smell, vapor, waft, whiff, zephyr*; o‘zbek tilida: *tebranish, tebratish, mayinlik, xira shabada, chayqalish, shamollatish, nafas.*

D. Hid ta’siri – ingliz tilida: *exhalation, exhaust, odor, smell, vapor*; o‘zbek tilida: *hidi kelmoq, aynimoq, aynigan, o‘tkir hid, kislota, o‘ngmoq, eskirmoq, sof, yaroqsiz, yomonlashmoq, buzilmoq, o‘zgarmoq.*

E. Sun’iy hidlar (insonlar tomonidan ishlab chiqilgan) – ingliz tilida: *aroma, aura, balm, bouquet, incense, perfume, redolence, scent, smell, spice;* o‘zbek tilida: *aroma, balzam, parfyum, aura, tutatqi, atir, ziravor, uksus.*

Hid bilish qobiliyatini ifodalovchi bunday leksemalar insonga tashqi olamni to‘laqonli tarzda bilib olishi, idrok qilishi, tuyishida o‘ziga xos vazifa bajaradi.

Ko‘rinib turibdiki, hid bilish qobiliyatini ifodalovchi leksemalar simmetrik va asimmetrik munosabati sifatida o‘zining asosiy vazifasi, ya’ni hid taratish jarayonini amalga oshirishda bu vazifani qay darajada ifodalayotgani ingliz tilida *good, bad, weak, strong* sifatlari yordamida amalga oshiriladi. *Good* sifati hid bilish qobiliyati

vazifasini yaxshi bajarayotgani, yaxshi idrok etayotganidan, ya'ni simmetrik munosabatdan dalolat bersa, *bad, weak* sifatlari bilan birikkanda uning faoliyati normadan past darajada ekaniga, ya'ni asimmetrik munosabatda ekaniga ishora qiladi.

Ushbu misollarga tayangan holda aytish mumkinki, ingliz va o'zbek tillarida hid bilish qobiliyatini ifodalovchi leksemalarga ega bo'lgan so'zlar insonning ichki va tashqi dunyosi o'rtasidagi o'ziga xos chegara rolini bajaryapti.

Bobning uchinchi fasli *"Ingliz va o'zbek tillarida eshitish layoqatini va teginish sezgisini ifodalovchi leksemalarning simmetrik va asimmetrik munosabati"* deb nomlanadi. Kognitiv tilshunoslik yo'nalishida til hodisalaridan bo'lmish eshitish layoqati strukturasini o'rganishda quyidagi holatlarni e'tiborda tutish lozim:

1) idrok elementlari majmuasini o'rganishda mazmundan shakl tomonga qarab semantik funksiyalari asosida tahlil qilish: (*eshitmoq – payqamoq*), (*to hare – to find out*);

2) idrok markazi (yadro yoki dominant so'z)lardagi belgilarning to'laqonliligi va maksimal darajadagi intensivligi va markazdan uzoqlashgan sari (periferiyada) bu belgilarning susayib borishi: (*eshitish – sukut saqlash*), (*to hear – to listen*)*;*

3) idrok elementlarining o'zaro ta'sir kuchi, ularning simmetrik va asimmetrik munosabatlari, umumiy segmentlarning mavjudligi, maydon strukturasining dinamik holati: (*tomosha qilmoq – tushunmoq*), (*to watch – to understsnd*).

Bizning fikrimizcha, birinchidan, eshitish layoqatini ifodalovchi leksemalarning roli ma'lumotlar yoki bilimni qabul qilishga, ikkinchidan, inson imkoniyatidan kelib chiqqan holda muayyan harakat obyektida eshitish va aqliy (inson) diqqatni bir joyga jamlash, imkon darajasida ularni ko'rish orqali kuzatish yoki ularni aqlan nazorat qilish va tahlil qilishga asoslangan.

Eshitish layoqatini o'rganishda ko'pincha so'zlovchining diqqat markazida sezgining quyidagi vazifalarini ham aniqladik:

a) borliqni tinglash – ingliz tilida: *appreciation, attention, auricle, consideration, discrimination, hearing, heed, lug, notice, regard;* o'zbek tilida: *eshitish, bilish, diqqat, ko'rib chiqish, kamsitish;*

b) tovushni idrok etish – ingliz tilida: *hark, hearken, heed, incline;* o'zbek tilida: *mayin, qalin, shovqin, anglash, tinglash, yuborish* va h.k.z.;

d) tovushlarning xilma-xilligini idrok etish – ingliz tilida: *shout, bawl, call, cry, holler, roar, scream, shriek, whoop, yell, clamor, cry out, exclaim, halloo, uproar, vociferate;* o'zbek tilida: *baqirmoq, chaqirmoq, yig'lamoq, qichqirmoq, qichqirmoq, g'alayon, shov-shuv, so'kish, qarg'ish, tanbeh, maqtash* va h.k.z.;

e) tovushlarga ajratishni idrok etish – ingliz tilida: *the voice of humanity, the sounds of animals and birds, natural phenomena and sounds of objects;* o'zbek tilida: *inson ovozi, hayvonlar va qushlarning tovushlari, tabiat hodisalari va narsalarning tovushlari* va h.k.z.;

f) tibbiy uskunalar ishtirokini idrok etish – ingliz tilida: *phonendascope, headphones (hearing aid for heart and lung movements);* o'zbek tilida: *quloqchin, eshitish aslahasi (tibbiyotda)* kabilarni aytimiz mumkin.

Qolgan hollarda ushbu a'zo bajaradigan vazifalarga e'tibor qilinadi: *pinna,*

lobe, tympanic, membrane, incus, malleus, tympanum, stapes, vestibule, cochlea, semicircular canals, auditory nerve, eustachian tube, auditory meatus; o‘zbek tilida: *eshitish nervi, naychasi, eshitish go‘shti, lakatr, parda* va h.k.z.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, eshitish persepsiyasining simmetrik holatini ifodalovchi til omillari kognitiv jarayoni bosqichlarini quyidagi chizma asosida ifodalashga harakat qildik (2-rasmga qarang):



2-rasm. Eshitish layoqatining asimmetrik jihatdan tahlili

Ma’noviy jihatdan bir-birlari bilan zidlashuv (antonimik (asimmetrik) munosabatda bo‘lgan leksemalarga quyidagilar misol bo‘ladi: *to have a good attention – to have a bad attention, deafness, silence, quietness, throw/toss out on (one’s) ear – prick up (one’s) ears, qulog‘i ding – qulog‘i kar, kar, sukut, qulog‘iga kirmoq – qulog‘iga kirmaslik* va boshq.

Shuningdek, tadqiqotimizning *“Ingliz va o‘zbek tillarida teginish sezgisini ifodalovchi leksemalarning simmetrik va asimmetrik munosabati”*ga bag‘ishlangan bo‘limida, teginish sezgisini ifodalovchi leksemalarning simmetrik va asimmetrik munosabatini aniqlashda tashqi ta’sirni qabul qilish qobiliyati va shu ta’sirdan yuzaga keladigan holatni ifodalovchi – ingliz tilida: *touch, sontact, feel, avoid, ignore;* o‘zbek tilida: *hislamoq, tegmoq, teginmoq, tekizmoq, ushlamoq, tutmoq* kabi so‘zlar tahlilga tortildi.

Shuningdek, ingliz va o‘zbek tillarida teginish sezgisini ifodalovchi leksemalarning simmetrik va asimmetrik munosabatini tahlil qilishda ushbu mavzuga aloqador bo‘lgan so‘zlarni so‘z turkumlari va ma’no guruhiga bo‘lib chiqdik.

Teginish sezgisini ifodalovchi leksemalarning simmetrik va asimmetrik munosabati nutqda turli stilistik vosita sifatida ham qo‘llanishi mumkin. Bu leksemalardan metaforik va metonimik modellar yasash orqali nutqda qo‘llash mumkin. Masalan, “*his etmoq yoki his qilmoq”* metaforik modeli insonning tuyg‘usi, sezgi qobiliyati bilan idrok qilish obyekti sifatida yuzaga chiqadi: *“Yodgor yelkasida qizning kaftidan o‘tayotgan haroratni his qilar, yuragi hayajondan gupillab urar edi”* (Hoshimov O‘. Qalbingga quloq sol. – B. 45).

Metaforik modellar bilan bir qatorda “teginish” sezgisi – inson (odam) – tipidagi metonimik modellar ham qo‘llaniladi. Masalan: *“Uning hazilona teginishida tahlika, sarosima yoki “ajab bo‘ldi!” degan bir ma’no, bir his yo‘q edi”* (Oybek. Navoiy. – B. 68). Ushbu misoldan ko‘rinib turibdiki, “teginish” leksemasi simmetrik munosabatda kelyapti.

Shuningdek, ingliz va o‘zbek tillarida teginish sezgisini ifodalovchi leksemalarning simmetrik va asimmetrik munosabatini hosil qiluvchi lisoniy birliklar statistik tahlilining quyidagi jadvalini ishlab chiqdik (2-jadvalga qarang):

2-jadval.

Teginish sezgisini ifodalovchi leksemalarning simmetrik va asimmetrik munosabatini hosil qiluvchi lisoniy birliklarning statistik tahliliy jadvali

O‘zbek tilida	Ot 27	Fe’l 53	Sifat 11	Jami 91	Foizda 100 %
Simmetrik	18	42	7	67	73 %
Asimmetrik	9	11	4	24	27 %
Jami	27	53	11	91	100 %
Ingliz tilida	Ot 35	Fe’l 64	Sifat 6	Jami 105	Foizda 100 %
Simmetrik	29	53	4	86	81 %
Asimmetrik	6	11	2	19	19 %
Jami	35	64	6	105	100 %

Qiyosiy tahlillarimiz natijalari yuqorida sanab o‘tilgan teginish sezgisini ifodalovchi leksemalarning simmetrik va asimmetrik munosabati bir tilda o‘zlarining umumlisoniy jihatlari bilan bir qatorda ma’lum izomorfik (o‘xshash) va allamorfik (noo‘xshash) jihatlari mazkur invariant til birliklari bilan bevosita bog‘liqdir. Bunday jihatlarni tahlil qilish sanab o‘tilgan leksik vositalarning qanday lisoniy maqomga ega ekanligini ko‘rsatib berdi.

Xulosa qilib aytganda, teginish sezgisini ifodalovchi leksemalarning simmetrik va asimmetrik munosabatini o‘rganish jarayoni murakkab va ko‘p qirrali hodisa sifatida turlicha ilmiy va fan yo‘nalishlari doirasida tadqiq qilinar ekan. Ushbu yo‘nalishlarning ko‘zga ko‘ringan va tanilganlari quyidagilardir: 1) psixofiziologik; 2) falsafiy; 3) ijtimoiy-madaniy; 4) lisoniy.

Teginish sezgisini ifodalovchi leksemalarning simmetriyadan asimmetriyaga o‘zgarishi kontekstdagi boshqa bir konseptual strukturaning ta’siri sabab bo‘lishi mumkin. Demak, simmetrik mazmunining situativ (kontekstual) darajaga va u reprezentatsiya qilayotgan vaziyatga bog‘liq bo‘lishi muayyan formatdagi bilimlarni va ayniqsa, konseptual darajadagi murakkab model bo‘lgan tushunchaning konseptual-taksonomik modelini tasvirlashda muhim aspekt bo‘lib hisoblanadi. Bu esa simmetriyaning taksonomik modeli strukturasi qotib qolmagan, dinamik struktura ekanligini anglatadi va u orqali konseptual darajadagi ichki va konseptlararo aloqalar amalga oshadi.

Dissertatsiyaning to‘rtinchi bobi **“Ingliz va o‘zbek tillarida persepsiyani ifodalovchi frazeologik birliklarning simmetrik va asimmetrik munosabat”**ga bag‘ishlangan bo‘lib, birinchi fasli *“Ingliz va o‘zbek tillarida ko‘rish sezgisini ifodalovchi frazeologik birliklarning simmetrik va asimmetrik munosabati”* deb nomlanadi. Tarkibida ko‘rish sezgisini ifodalovchi frazeologik birliklarning simmetrik va asimmmetrik tahlilini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun “ekvivalentlik (o‘xshashlik)” atamasining mohiyatini aniqlab olish lozim bo‘ladi.

Jumladan, frazeologik birliklarning yadro va periferiya o‘rtasida nutqda qo‘llanilishi, hajmi va til nozikliklar (ottenkalar)i nuqtayi nazaridan o‘zaro farqlariga quyidagicha izoh beramiz:

Ko‘rish sezgisini ifodalovchi frazeologik birliklarning yadrosi sifatida ingliz tilida: *see which way the cat jump, see through, see the light, look what happened, look through rose-coloured spectacles, can’t bear smb/smth, cut smb’s deed, follow lik sheep, blear the eyes, have a nice on smb, cast a covert glance, make sheep’s eye at smb, nodding acquaintance, cast an eye over smth, shut one’s eyes to;* o‘zbek tilida: *nazar solmoq, ko‘rib qolmoq, ko‘rib turmoq, ko‘rib qo‘ymoq, ko‘rgan edi, ko‘rgan emish, ko‘zini uzmasdan, ko‘zi bilan yegudek, ko‘zini suzmoq, diqqatni jamlamoq* va boshqalar kabi frazeologik birliklar, uning periferiyasi doirasiga *“ko‘zining bir chekkasida ushlamoq”, “bir qarashdayoq sezmoq”* va hokazolarni kiritish mumkin.

Ingliz va o‘zbek tillarida frazeologik birliklarning simmetrik va asimmmetrik munosabati sintagmatik xususiyatlarga ularning matnda o‘zaro omonimlik, sinonimlik, antonimlik va variantdoshlik kabi xususiyatlarni namoyon etishlari kiradi. Ko‘rish sezgisini ifodalovchi frazeologik birliklar ham matnda o‘ziga xos sintagmatik xususiyatlarni namoyon qiladi.

Ko‘rish sezgisini ifodalovchi frazeologik birliklarning simmetrik munosabati matnda o‘zining turli xil qarama-qarshi ma’noni ifododalovchi ziddoshlariga ega. Bunda bir iboraga zid ma’noli *antonim* ibora hosil bo‘ladi. Masalan, *ko‘ziga issiq ko‘rinmoq – ko‘ziga sovuq ko‘rinmoq*.

O‘zbek tilida ko‘ziga tanishdek tuyulgan shaxslarga nisbatan *ko‘ziga issiq ko‘rinmoq* iborasi qo‘llanadi. Bu ibora ko‘p ma’noli xarakterga ega bo‘lib, birinchi ma’nosi *tanishdek tuyulmoq* bo‘lsa, ikkinchi ma’nosi *ko‘ziga yoqimli ko‘rinmoq, ko‘ziga o‘tday ko‘rinmoq simmetrik* ma’nosidir. Mazkur ibora anglatgan ikkinchi ma’noga zid tarzda o‘zbek tilida *ko‘ziga sovuq ko‘rinmoq* iborasi shakllangan. Ya’ni, kimnidir yoqtirmaslik, kimgadir nisbatan jirkanish hissi uyg‘onganda, asimmetrik munosabatga o‘tib *ko‘zimga sovuq ko‘rinyapsan* iborasidan foydalaniladi. O‘zbek tilida *ko‘ziga sovuq ko‘rinmoq* iborasining quyidagi variantlari mavjud: *ko‘ziga yomon ko‘rinmoq, ko‘ziga xunuk ko‘rinmoq, ko‘ziga balodek ko‘rinmoq*. Bu ko‘rish sezgisini ifodalovchi frazeologik birliklarning tarkibidagi *sovuq – yomon – xunuk – balodek* so‘zlarining asimmetrik mazmuni quyidagi jadvalda ko‘rish mumkin (3-jadvalga qarang):

3-jadval.

Ko‘rish sezgisini ifodalovchi frazeologik birliklarning asimmetrik mazmuni jadvali

IBORA	ANTONIMI
Ko‘ziga issiq ko‘rinmoq	*1. Ko‘ziga **xunuk** ko‘rinmoq.* *2. Ko‘ziga **yomon** ko‘rinmoq.* *3. Ko‘ziga **sovuq** ko‘rinmoq.* *4. Ko‘ziga **ko‘pik bo‘lib** ko‘rinmoq.* *5. Ko‘ziga **balodek** ko‘rinmoq.*

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan iboralar ichida *ko‘ziga sovuq ko‘rinmoq* iborasining variantlari bo‘lgan *ko‘ziga yomon ko‘rinmoq, ko‘ziga xunuk ko‘rinmoq, ko‘ziga ko‘pikday ko‘rinmoq* kabilar biz ko‘rgan lug‘atlarda aks etmagan. Misol uchun: *“Men «Urfon» maktabiga birinchi borgan kunim ko‘zimga juda issiq ko‘ringan Meliboy domla degan yigit hammamizni kattakon bir sinfga yig‘ib sharqiy degan ashula o‘rgatdi”* (Qahhor A.); *“Ko‘ziga bobosi yomon ko‘rinib, ko‘nglida unga nisbatan adovat hissi uyg‘ondi”* (Norqobilov N., Qoyalar ham yig‘laydi. – B. 16)*; “– E, g‘alatisiz-a! Mavlonqulov nohaqdan qamalganda, qiynalgan kunlarimda, sarson bo‘lgan kunlarimda, yordam so‘rab borib, haqoratlanib qaytgan kunlarimda sud idoralari ko‘zimga qanday yomon ko‘rindi!”* (Qahhor A.)*; “Bolaning bot tirg‘alishidan xayoli bo‘lingan Ernazar polvonning jahli chiqdi. Uning kalta ishtoni to‘satdan ko‘ziga xunuk ko‘rinib, haydab solmoqqa zo‘r bahona bo‘ldi”* (Norqobilov N. Qoyalar ham yig‘laydi. – B. 36). Ko‘rish sezgisini ifodalovchi frazeologik birliklarning simmetrik munosabati matnda o‘zining turli xil qarama-qarshi ma’noni ifododalovchi ziddoshlariga ega. Bunda bir iboraga zid ma’noli *antonim* ibora hosil bo‘ladi. Masalan, *ko‘ziga issiq ko‘rinmoq – ko‘ziga sovuq ko‘rinmoq*.

Ushbu bobning ikkinchi fasli *“Ingliz va o‘zbek tillarida ta’m va hid bilish qobiliyatini ifodalovchi frazeologik birliklarning simmetrik va asimmetrik munosabati”* deb nomlangan. Ta’m bilish xususiyatiga oid frazeologik birliklarning ma’lum qismi biror voqea-hodisani nomlash bilan birga, ularga simmetrik va asimmetrik munosabatni ham ko‘rsatadi. Masalan, o‘zbek tilida: *maza qochiruvchi, nordoni chiqdi, achchiq ta’mni bermoq, shirindimog‘ bolmoq, sho‘ri chiqib ketmoq, sho‘riga sho‘rva to‘kilmoq*, *nimtatir qilmoq: “Zumrad nimtatir qilib choy damlab qo‘ydi”* (Oybek. Zumrad. – B. 12); *achchiq qilmoq, achchiq-chuchuk tayyorlamoq: “Chorpoyada oyoq uzatib, o‘n chog‘li kishi choy ichar, birovi achchiq-chuchuk tayyorlab, birovi turp maydalardi”* (Nurov S. Narvon. – B. 28); *ko‘ziga cho‘p solmoq, qosh qo‘yaman deb ko‘z chiqarmoq, ko‘rgani ko‘zi yo‘q, qo‘l ko‘tarmoq (urmoq ma’nosida);* ingliz tilida – *so bad one can taste it, in bad taste, the worst possible, etc. taste, leave a bitter taste in (one’s) mouth, leave a bad taste in the/your mouth, in poor taste, a bitter pill to swallow, be bitter and twisted, fight till the bitter end, fight to the bitter end, fight until the bitter end, end on a sour note, finish on a sour note, go sour, hit a sour note, leave a sour taste in (one’s) mouth, sound a sour note, sour cherry, salt mines, salt of the earth, salt of the earth, salty dog, salty tongue* kabi iboralar asimmetrik munosabatni bildirsa, quyidagi frazeologik birliklar – o‘zbek tilida: *maza bermoq, maza kiritmoq, shirin bolmoq, chuchuk suv, shirinlagani kelmoq: “Choyinglarni shirinlagani keldim”* (Rahim I. Chin muhabbat. – B. 69); ingliz tilida: *taste like (something), all (one’s) taste is in (one’s) mouth, be in good taste, the best possible, etc. taste, have good taste, have expensive taste(s), leave a nasty taste in (one’s) mouth, talk and taste your tongue, leave a sour taste in (one’s) mouth ,(as) sweet as honey, (as) sweet as pie, (as) sweet as sugar, a rose by any other name (would smell as sweet), a sweet tooth, be short and sweet, be sweet on (one), cop it sweet* kabi iboralar simmetrik munosabatni ifodalashi ko‘rinib turibdi. Bitta frazeologik birikma bir paytning o‘zida ham simmetrik, ham asimmetrik ma’no

ifodalashi mumkin. Bu hodisa tilshunoslikda frazeologik enantiosemiya deb yuritiladi. Masalan, ingliz tilida ***a question of taste*** frazeologik birikmasining birinchi ma'nosi *oziq-ovqat* yoki *ichimliklardan zavqlanish bo'lsa*, ikkinchi ma'nosi *inson didi va qarashlarining past* ekanligini ifodalaydi. Masalan, ushbu gapda ikki xil tarjimada kelishi mumkin: *"I can't believe you hate Cilantro, but I guess it's just* ***a question of taste****"* – 1. *Silantroni (Meksika va Hindistonda o'stiriladigan achchiq o'simlik) yomon ko'rishingizga ishonmayman, lekin menimcha, bu shunchaki didga bog'liq*. *2. Silantroni (tayyorlangan ovqatini) yomon ko'rishingizga ishonmayman, ammo bilimshimcha u insonga zavq bag'ishlaydi.*

